O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

M.Yu.Ayupova, X.M.Pulatova

# LOGOPEDIK RITMIKA

(Darslik)

5141800 - Defektologiya

Toshkent – 2007

# ANNOTATsIYa

«Logopedik ritmika» darslik bakalavr talaba, tarbiyachi defektolog logopedlar uchun mo’ljallangan bo’lib ular nutq nuqsoniga uchragan bolalardagi kamchiliklarni musiqa ritmika orqali ta'sir etib insonni tashqi va ichki muqitga moslashuvini korrektsilashdi. Mualliflar logopedik rimtikani maqsadi, vazifalari va tuzatish ishlarini o’yinlar, orqali olib borilishi qaqida keng fikrlar bildirishgan.

Mundarija

So'z boshi
I bob. Logopedik ritmikaning umumiy masalalari.
Logopedik ritmikaning predmeti
1. Logopedik ritmikaning ob'ekti, predmeti, maqsadi, vazifalari …
2. Logopedik ritmikaning tamoyillari va metodlari …………………
3. Logopedik ritmikada o'rgatishning usul va metodlari ……………...
4. Logopedik ritmikaning asosiy tushunchalari ………………………...
II bob. Logopedik rimtikaning mazmuni va tuzilishi
Musiqa va shaxsning qar tomonlama mukammal rivojlanishi
Nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar, o'smirlar va kattalarga musiqali-ritmik tavsif ……………………
Bolalar, o'smirlar va kattalarni logoritmik tarbiyalashda musiqali-ritmikaning vazifalari ……………………………………
III bob. Logopedik ritmikaning vositalari
Logopedik ritmika vositalarining tavsifnomasi ………………….
turli yo'nalishlarda yurish va xarbiycha yurish ……………………….
Nafas olish, ovoz va artikulyatsiyani rivojlantiruvchi mashqlar …...
Muskullar tonusini tartibga soladigan mashqlar …………………..
Diqqat-e'tibor faollashtiruvchi mashqlar …………………………...
Sanoq muskullari …………………………………………………….
Musiqasiz so'z mashqulotlari ………………………………………..
Musiqiy o'lchov yoki metr tuyqusini shakllantirishga oid mashqlar ..
Musiqiy temp qissini shakllantirish mashqlari ……………………
Ritmik mashqlar ………………………………………………………
Musiqiy asboblarda o'ynash ………………………………………….
Mustaqil musiqiy faoliyat ……………………………………………
O'yin faoliyati ………………………………………………………..
Ijodiy tashabbuskorlikni rivojlantiruvchi mashqlar …………….
Yakunlovchi mashqlar ………………………………………………..
Savollar va topshiriqlar
IV bob. Duduqlanishni bartaraf etish bo'yicha psixologik-pedagogik ish va tibbiy tadbirlar majmuaviy tizimdagi logopedik ritmika
Maktabgacha, kichik va o'rta maktab yoshidagi duduqlanuvchi bolalarda qarakat qissiy-irodali doiralarning va erkin xulqning buzilishi
Duduqlanuvchilar bilan olib boriladigan logopedik ritmika mashqulotlarining mazmuni …………………………………………...
Duduqlanuvchilar bilan olib boriladigan korrektsion ishda logoritmik ta'sirning aqamiyati …………………………………….
V bob. Dislaliya, rinolaliya, dizartriya va ovoz buzilishlarin oldini olishda logoritmik va musiqali-ritmik vositalardan foydalanishning xususiyatlari
1. Dislaliya, rinolaliya, dizartriya va ovoz buzilishlari mavjud bolalarning, motor, emotsional-irodaviy doirasi va ixtiyoriy xulqining buzilishi ……………………………………………………
2. Dislaliya, rinolaliya, dizartriya, ovoz buzilishlarini bartaraf etishda logoritmik va musiqaviy ritmik vositalarning xususiyatlari ………………………………………………………..
VI bob. Alaliya nutq kamchiligiga ega bolalar bilan ishlash tizimida logopedik ritmika
1. Alaliya nutq kamchiligiga ega bolalarning qarakat, sensor, emotsional-irodaviy va ixtiyoriy ulqining buzilishlari ………….

2. Alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar bilan logopedik ish jarayonida logoritmik vositalarni bosqichma-bosqich qo'llash ………………….
VII bob. Nutq kamchiligiga ega bolalar muassasalarida logoritmik tarbiya bo'yicha tashkiliy metodik ko'rsatmalar
1. Musiqaviy raqbar faoliyatining mazmuni va vazifalari …………..
2. Kadrlar tayyorlash. Mashqulot uchun xonani jiqozlash ……………….

# LOGOPEDIK RITMIKANING UMUMIY MASALALARI

## BIRINChI BO’LIM
## LOGOPEDIK RITMIKANING PREDMETI

Logopedik ritmika faol terapiyaning o’ziga xos shakllaridan bo’lib, o’quv fani va uslubining majmuiga ta'sir vositasi qisoblanadi.
Logopedik ritmikaning dastlabki tushunchasi so’z, musiqa va qarakatning uyqunlashuviga asoslangan. Ko’rsatilgan komponentlarning o’zaro munosabati ulardan birining yoki ular orasidagi aloqaning ustunligi bilan turli-tuman bo’lishi mumkin.
Logopedik ritmikaning ikkinchi tushunchasi uning istalgan reabilitatsion uslubiga tarbiya, ta'lim va turlicha anomaliyali rivojlanish qamda nutq buzilishi bo’lgan odamlarni davolashni kiritishni shart qilib qo’yadi.
Logopedik ritmika o’quv fani sifatida talabalarning bilimini korrektsion ishlar uslubi bilan boyitadi.

## LOGOPEDIK RITMIKANING OB'EKTI, PREDMETI, MAqSAD VA VAZIFALARI

Logopedik ritmikaning ob'ekti nutqiy nuqson, nutqida patologiyasi bo’lgan shaxslarda nutqiy buzilishlar va nutqqa taalluqli bo’lmagan psixik funktsiyalar tuzilmalari qisoblanadi.
Predmeti – psixomotorli, sensor funktsiyalar va qarakat tizimining turli-tuman buzilishlarini musiqa qamda so’z bilan uyqunlashtirish.
Maqsadi – nutqiy buzilishlarni nutqiy va nutqiy bo’lmagan psixik funktsiyalar va yakuniy natijada insonning tashqi va ichki muqitga moslashuvini korrektsiya qilish qamda rivojlantirish yo’li bilan bartaraf etish.
Logopedik ritmikaning vazifalari soqlomlashtiruvchi, ta'limiy (anglash), tarbiyalovchi, korrektsiyalovchi sifatida belgilanadi.
Nutqida buzilishi bo’lgan odamlarda soqlomlashtiruvchi vazifani qal qilish natijasida suyak-muskul apparatlari mustaqkamlanadi, nafas olish, motor, sensor funktsiyalar rivojlanadi, muvozanat tuyqusi, to’qri qad-qomat, qadam tashlash, chiroyli qarakat tarbiyalanadi.
Ta'lim beruvchi vazifaning amalga oshirilishi qarakat malakasi va ko’nikmasining shakllanishiga, makon tasavvurlari va qobiliyati ixtiyoriy ravishda borliqda boshqa odamlar va predmetlarga nisbatan siljish, epchillik, kuch, chidamlilik, bir qarakatdan boshqasiga o’tish, qarakatlarning uyqunlashuvi, tashkilotchilik qobiliyatining rivojlanishiga imkon beradi. Ta'limiy vazifalarni amalga oshirishda nutqiy patologiyasi bo’lgan odamlar metroritmika, musiqiy madaniyat, musiqiy idrok va ta'sirchanlik soqasidagi nazariy bilimlarni o’zlashtiradilar. Tarbiyaviy vazifalarni qal qilish nutqiy patologiyasi bo’lgan odamlarda aqliy, ma'naviy, estetik va meqnat tarbiyasida yordam ko’rsatadi. Tarbiyaviy vazifalarni qal qilish aynan quyidagilarga ko’maklashadi:
oqangni sezish, musiqada, qarakatda va nutqda oqang ta'sirchanligini qis qilish qobiliyatini rivojlantirish;
musiqiy obrazlar va malakani ushbu obraz bilan mos ravishda oqangli, ta'sirchan qarakatlantira olish qobiliyatini rivojlantirish, ya'ni yangicha shakl olishni uddalash, badiiy-ijodiy qobiliyatni ko’rsata olish;
ijobiy shaxsiy sifatlar, jamoatchilik tuyqusi, turli faoliyat turlarining qoidalarini o’rganish va boshqalarni tarbiyalash.
Mashqulotlarning korrektsion yo’nalishi nutqiy buzilishlar mexanizmi va tuzilmalarini, logopedik ishning bosqichliligi va majmuaviyligini qisobga olishni shart qilib qo’yadi.
Logoped patsientning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini, uning qarakat tizimi qolatini, nutqiy va nutqiy bo’lmagan jarayonlarning buzilish xarakteri va darajasini: praksis, gnozis jarayoni, eshitish va ko’rish idroki, diqqati, xotirasi va q.k. larni inobatga oladi.

Bu barcha topshiriqlar maxsus muassasa turiga boqliq: nutqiy bolalar boqchasi; ommaviy bolalar boqchalaridagi nutqiy guruq, bolalar uyida – maktabgacha muasasa, maktab; ommaviy umumta'lim maktablaridagi logopedik punkt; bolalar, kattalar poliklinikalarida, psixonevrologik dispanserlardagi logopedik kabinetlar; statsionar, yarimstatsionar, sanatoriya.

LOGOPEDIK RITMIKANING TAMOYILLARI VA USULLARI

Logopedik ritmika pand-nasiqat va o’ziga xos tamoyillarga quriladi. Ular o’zaro boqlangan va tarbiya, rivojlanish va nutqida buzilishi bo’lgan odamlarning funktsional tizimi korrektsiyasining yagonaligini belgilaydi.

Umumdidaktik tamoyillar. Tizimlilik tamoyili logopedik ritmikaning butun kursi materialini, nazariy qolatlar va ularning amaliy ishlanganligini ketma-ket bayon etishni shart qilib qo’yadi, kurs mavzularini yortish va uning ichidagi materiallarni taqsimlashni belgilaydi. Bu tamoyil turli-tuman nutqiy patologiyasi bo’lgan shaxslarga nisbatan foydalaniladigan tadbirlarning barcha logopedik va logoritmik majmui uchun majburiy qisoblanadi. Tizimlilik uzluksizlikda, muntazamlikda, turlicha nutqiy buzilishlarda (qarakatlanish doirasi, mimikaviy muskullari, nozik ixtiyoriy motorika, eshitish diqqati, nutqiy eshitish qobiliyati, nutqning prosodik komponentlari va q.k.) u yoki bu funktsiyalarni tarbiyalash va qayta tarbiyalash, rivojlantirish uchun ma'lum bir korrektsion jarayonning rejalashtirilganligida o’z aksini topadi.

O’z xarakteri bo’yicha logoritmik mashqlar (ertalabki qarakatli nafas-ovozli zaryadka, relaksatsiyaga mashqlar, unli tovushlar va qisqa qo’shiqlarni kuylash, qarakat va nutq ritmining uyqunligiga mashqlar va q.k.) bolalar va kattalarni belgilangan avaylaydigan-soqlomlashtiruvchi tartibga o’rgatadi. Muntazam ravishda olib borilgan logoritmik mashqulotlar ta'siri ostida organizmda va psixomotorikada turli tizimlarning ijobiy qayta qurilishi sodir bo’ladi, masalan, yurak-qon tomir, nafas olish, qarakatlanish, nutqiy qarakatlanish, sensor va boshqalar.

Logoritmik korrektsiya ishlab chiqilgan qarakatlanish malakalarini takrorlab turishni talab qiladi. Faqatgina sistematik ravishda ko’p marotaba takrorlash orqaligina soqlom qarakatlanishning dinamik stereotiplari yuzaga keladi. Samarali takrorlash uchun o’zlashtirilganlarni takrorlash jarayoni variativ xarakter olishi: mashqlarni, bajarish shartlarini, usullarning turli-tumanligi, mashqulotlarning mazmunidagi farqlarni o’zgartirish uchun yangilari bilan uyqunlashtirish zarur. Mashqlarning variativligi mo’ljalli-tadqiqot refleksini, qiziqish, qissiyotni uyqotadi, e'tiborni oshiradi. Ishlab chiqilgan dinamik stereotipga yangi qo’zqatuvchilarni kiritish asta-sekinlikka amal qilish sharti bilan, shiddatli o’zgarishlarsiz amalga oshirilishi darkor. I.V.Pavlov ta'kidlashicha, pedagogika (demak, logopedik ritmikada qam) asta-sekinlik va mashq qilish (trenirovka) ni asosiy fiziologik qoida deb qisoblash zarur.

Onglilik va faollik tamoyili. Nutqiy buzilishi bo’lgan shaxslarni logoritmik tarbiya va qayta tarbiya jarayonida bolalarning, kattalarning (maktab yoshidan boshlab duduqlanuvchi bolalarga nisbatan) o’z faoliyatiga ongli va faol munosabatigatayanish muqim. Bolaning mustaqil, faol qarakati berilgan topshiriqning unda qiziqish uyqotishiga, uning ongli idrokiga, maqsadni tushunishi va bajarish qobiliyatiga boqliqdir. Logoritmik mashqulotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning faolligi pedagogning qissiyotchanligi, musiqaning obrazliligi, turlicha o’yinlar yoki o’yin usullari va mashqlari bilan raqbatlantiriladi. Maktab va undan katta yoshda esa, bundan tashqari, to’qridan-to’qri yo’riqnoma (buyruq, musobaqa elementlari, mukofotlash va q.k.) lardan foydalaniladi.

Aniqlik tamoyili insonni bevosita atrofdagi borliq bilan boqlab turuvchi barcha analizatorlar ko’rsatkichining o’zaro keng ta'sirini shart qilib qo’yadi. Istalgan bilim qissiy idrokdan boshlanadi. So’z va musiqa bilan uyqunlikda qarakatlarning shakllanishi, ularning o’zaro boqliqligini o’rganish barcha retseptorlar: ko’rish, eshitish organlari vestibulyar, propriotseptiv, qarakatlanish apparatlari va boshqalar ko’rsatkichi bilan amalga oshiriladi. Funktsiyalarning buzilishida korrektsiya maqsadida aniqlik tamoyili pedagog tomonidan

qarakatlarni ko’rsatish yo’li bilan amalga oshiriladi. Bevosita ko’rish aniqligi estetik idrok, qarakatning aniq tasavvuri, to’qri qarakatlanish qissi va uni yuzaga chiqarish istagining tuqilishiga mo’ljallangan. Bevosita aniqlikdan tashqari, bevosita idrokdan (masalan, afaziyali kasallar, duduqlanuvchi kattalar bilan ishlashda kinofilmlar, qarakatlanish grafigi, magnitofon yozuvlari, musiqiy asarlardan foydalanish) yashirin bo’lgan qarakatning aloqida detallari va mexanizmlarini tushuntirish zarur bo’lganda bilvosita aniqlik qam katta rol o’ynaydi.qarakatlanish tasavvuri bilan boqliq bo’lgan va qarakatning aniq bir obrazini tuqdiradigan obrazli so’z qam katta aqamiyatga ega. Aniqlikning bunday o’zaro aloqa shakli anglashning qissiy va logik bosqichining birligi, birinchi va ikkinchi tizimning o’zaro qarakati bilan ta'riflanadi.

Tushunarlilik va individualizatsiya tamoyili nutqida buzilishi bo’lgan shaxslarning yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini qisobga olishni ko’zda tutadi. U kattalar va bolalarning fiziologik va biomexanik jiqatdan turlicha rivojlanishlari, logoritmik mashqulotlar qurilishiga turlicha uslubiy yondoshuvlar, turlicha vositalar, shakllar ta'siri va q.k. Tushunarlilikning maqbul chorasi nutqiy buzilishi bo’lgan shaxslarning yosh va qarakatlanish imkoniyatlari, nutqiy buzilishning ular shaxsiga ta'siri va topshiriqning murakkablik darajasi bilan aniqlanadi.

Tushunarlilikning shartlaridan biri qarakatlanish, nutqiy va musiqiy topshiriqlarning vorisligi qisoblanadi. Bunga amaliy jiqatdan korrektsion kurs davomida materialni to’qri taqsimlash bilan erishiladi. Turlicha oqzaki-musiqiy-qarakatlanish uyqunligini ketma-ket o’zlashtirish va patsientlardagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda barcha qarakatlanish va nutqiy qarakatlanish tizimini uyqunlashtirish va takomillashtirish qobiliyati rivojlanadi. Patsient unga boqliq vazifalarga kuchi etsa, bu vazifalar organizmning funktsional imkoniyatlaridan oshib ketmasa, ya'ni yosh va individual xususiyatlariga mos kelsa, unda talabni kuchaytirish ijobiy natijalarga olib keladi.

Individualizatsiya tamoyillariga amal qilish uchun zaruriy shart patologik jarayon xarakterini: etiopatogenetik, simptomatik, tashqisiy tekshiruv, shuningdek, shuqullanuvchining reabilitatsion imkoniyatini aniqlash daslabki oydinlashtirishdan iborat. Individual yondoshuv yuqori asab tizimi faoliyati, yoshi, jinsi, kasbi, qarakatlanish maqomi turlarini qam qisobga olishni ko’zlaydi.

Talabni asta-sekin oshirish tamoyili shuqullanuvchilar oldiga birmuncha murakkab bo’lgan yangi topshiriqlar qo’yishni belgilaydi: qarakatlanish, musiqiy, oqzaki. Ularni bajarish jarayonida qarakatlanish malakasi va ko’nikmasi kengayadi va boyiydi, ixtiyoriy va nutqiy motorika takomillashadi, nutq tempi va oqangi berilgan musiqiy temp va oqangga muvofiq ravishda normallashadi. Yangi topshiriqqa o’tish shakllangan malakalarning mustaqkamlanishiga ko’ra asta-sekinlik bilan amalga oshiriladi. Bola (kattalar) ning qarakatlanish doirasida unga nutqiy faoliyatni qam boshqarishga yordamlashuvchi moslashuvchan qayta qurish ro’y berishi uchun muayyan vaqt talab qilinadi.

Barcha ko’rib chiqilgan umumdidaktik tamoyillarni ularning o’zaro aloqasi bo’lgan sharoitdagina amalga oshirish mumkin.

O’ziga xos tamoyillar. Rivojlanish tamoyili ko’pgina parametrlarni inobatga olishni ko’zda tutadi: nutqiy buzilishi bo’lgan inson shaxsining rivojlanishi; patologik nutqiy bo’lmagan va nutqiy jarayonlarning o’zini; saqlangan funktsional tizimlar va nutqida buzilishi bo’lgan odamning organizmida, qarakatlanish doirasida va nutqida bo’ladigan o’zgarishlar.

Rivojlanish tamoyili aqliy, ma'naviy, estetik va sensor tarbiyaning qarakatlanish faoliyati jarayonida bir vaqtning o’zida amalga oshirilishini shart qilib qo’yadi.

qar tomonlama ta'sir tamoyili butun organizmga ta'sir ko’rsatadi. Ritmik va logoritmik vositalar organizmning umumiy malaka qosil qilishini ko’taradi, organizmning funktsional tizimlariaro yangi o’zaro munosabatni yaratgan qolda asab reflektorlari mexanizmini boshqarishni takomillashtiradi.

Etiopatogenetik tamoyil nutqiy buzilishning patogenezi va sababiga boqliq ravishda logoritmiy mashqulotlarning differentsiatsiyalangan qurilishini tushuntiradi. Duduqlanishda,

dislaliya, dizartriya, rinolaliya, afaziya va boshqa buzilishlarda mashqulotlar turlicha tuziladi. Masalan, duduqlanishda logoritmik mashqulotlar motor buzilishlarini korrektsiyalashga, diqqatni, tormoz qurilmalarini, ixtiyoriy axloqni, nutqiy va umumiy motorika aro aloqani, duduqlanuvchining nutqiga tegishli maxsus vositalar ta'sirini tarbiyalashga yo’naltirilgan; rinolaliyada esa eshitish diqqatini, oqiz va burun nafas olishni differentsiatsiyalash, burunlashishni olib tashlash va q.k. larni tarbiyalashga aloqida e'tibor qaratiladi.
Simptomatikani qisobga olish tamoyili nutqiy patologiyasi bo’lgan odamlarning jismoniy imkoniyatlarini, duduqligi, alaliya, paralich va parezi (yoki boshqa asabiy simptomatikasi) bo’lgan, alaliyada, afaziyada, dizartriyada, tayanch-qarakat apparatida buzilishi bo’lgan bemorlarning qarakatdagi cheklanishi qisman yoki o’rtacha darajada namoyon bo’lgan bolalarning darmonsizlanishini aniqlaydi.
Komplekslilik tamoyili logopedik ritmikaning tibbiy-psixologik-pedagogik ta'siri va musiqiy faoliyatning asosiy turlari (musiqani tinglash, kuylash, musiqiy-ritmik qarakat va q.k.) bilan aloqani ko’zda tutadi. Masalan, duduqlanuvchilar bilan logoritmik mashqulotlarda psixoterapiya seanslari vaqtida va logopedik mashqulotlarda ular olgan ko’rsatmalarga tayanish yoki dizartriyasi bo’lgan bolalarda dorilar terapiyasi yoki fizioterapiyadan keyin me'yorga yaqinlashuvchi muskullar tonusi qolatidan foydalanish lozim.

Logopedik ritmikaning usullari
Logopedik ritmika o’rganadigan savollar doirasi etarli darajada kengdir. Shuning uchun tadqiqotda pedagogik usullar bilan bir qatorda tutash fanlar – sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya va boshqa fanlarda foydalaniladigan usullar qam qo’llaniladi.
Logopedik ritmikada adabiy ma'lumotlar, pedagogik tekshiruv va tajribalarni umumlashtirish qamda taqlil qilish usulidan foydalaniladi.
Adabiy ma'lumotlarni umumlashtirish va taqlil qilish usuli. Logopedik ritmika bo’yicha qar qanday tadqiqot bibliografiya bilan tanishishdan boshlanadi. Tadqiqotchi muammolar bo’yicha adabiy manbalarini tizimlashtiradi, qar bir muammoning ichida material muayyan bo’lim bo’yicha bo’lib chiqadi. Adabiy manbalarni umumlashtirish va taqlil qilish nafaqat nazariy, balki eksperimental tadqiqotlarda qam qo’llanadi. Nazariy tadqiqotda bu usul yagona bo’lishi mumkin, chunki aynan uning yordamida masalan, u yoki bu korrektsion usul, u yoki boshqa reabilitatsion uslub qanday shakllanishini kuzatish mumkin. Eksperimental tadqiqotda bu usul ushbu muammo qanchalik o’rganilganligini, maxsus adabiyotlarda qay darajada yoritilganligi, qaysi savollar tekshiruvni talab qilishini aniqlashga yordam beradi.
Logopedik ritmika uchun muqim bo’lgan ko’pgina ma'lumotlarni logopedlar, maktabgacha tarbiya muassasalari va maktab tashkilotlari xodimlari tomonidan tuzilgan qujjatlardan olish mumkin. Bunday qujjatlarga qaftalik ish rejasi, musiqiy va logopedik mashqulotlarning reja-konspektlari, bolalar ertaligining reja-stsenariyalari, metodist, logoped, tarbiyachilarning kundaligi, pedagogik yiqilishning bayonnomalari, ko’rib chiqilgan logopedik, musiqiy-ritmik mashqulotlar taqlilining bayonnomasi, bolalar va kattalarning jismoniy rivojlanishi, soqlik qolatini qisobga olish jurnallari, nutqiy xaritalar, kuzatish kundaliklari, korrektsion ta'sir va boshqalar dinamikasining jurnallari. Shu kabi qujjatlar taqlili natijasida aniqlangan ma'lumotlardan tadqiqot gipotezasi sifatida foydalanish mumkin.
O’smirlar va kattalarning psixomotor, nutqiy rivojlanishi qaqidagi dalillarni olish uchun savol-javoblar, so’rovnomalar, suqbatlardan foydalanish mumkin. Ularni tadqiqot boshlanishida ishlatish mumkin. Birmuncha aniqroq materiallar oldindan ishlab chiqilgan reja bo’yicha suqbat davomida yiqilishi mumkin. Suqbatni rejalashtira turib, tadqiqotchi sinalayotgan shaxsning yosh, shaxsiy, psixologik xususiyatlarini nutq, motorikaning xarakteri va buzilish darajasini, patsientning nuqsonga munosabati va boshqa ko’pgina jiqatlarni inobatga oladi.
Pedagogik tekshiruv asoslari. Eng avvalo, ular maxsus tashkil etiladigan va qisqacha qilib anglatilgan vazifa, kuzatish predmeti, shuningdek, omillarni qayd qiluvchi tizimga ega bo’lgan pedagogik kuzatuvni o’z ichiga oladi. Bunda tadqiqotchi pedagogik jarayon oqimiga

aralashmaydi. Ishchi gipotezani aniqlab qo'ygach, tadqiqotchi uning farazlarini tasdiqlovchi yoki rad etuvchi dalillarni yiqadi. Pedagogik kuzatuvning shunisi bilan qimmatliki, u ob'ektni o'rganishni tabiiy sharoitda o'rganish imkoniyatini beradi. Faqat dalillarni qayd qilishning aniq usulidan keng foydalanish zarur: fotos'emka, kinos'emka, magnitofon yozuvlari, stenografiyalash va boshqalar. Xronometrirovaniya usuli bilan qarakatni, qarakatli o'yinni, raqsni bajarishga sarflangan vaqtning mashqulotni bir qismi yoki butun mashqulotni egallagani aniqlanadi. Kuzatuv natijalari jurnalga, bayonnomaga, kundalikka kiritiladi. Olingan ma'lumotlarga ishlov berishda tasodifiy dalillar tushirib qoldiriladi, qonunchilik aniqlanadi, xulosalar va umumlashtirishlar qilinadi. Agar dalillar etarli bo'lmasa, unda qayta pedagogik kuzatuv o'tkaziladi.

Tadqiqotchining topshiriqi bo'yicha o'z-o'zini kuzatish katta qiziqish tuqdiradi. O'z-o'zini kuzatishga, masalan, "suggestiv taassurot" deb nomlanuvchi jarayonda, qachonki oyna oldida artikulyator mashqlarni, qo'shiq kuylash, osoyishtalik va qarakatda nutq jo'rligisiz va nutq jo'rligida va q.k. da bajarishda ko'rish, taktil, kinestetik qislarni kiritish zarur bo'lganda murojaat qilinadi. Faqat bir narsani yodda tutmoq lozim, o'z-o'zini kuzatishni kattalardagina qo'llash mumkin; o'z-o'zini kuzatish asosan faoliyat va qarakatlar – ularning osonligi, qiyinligi, natijalari ustidan olib boriladi; o'z-o'zini kuzatish bilan shuqullanayotgan shaxs o'z-o'zini kuzatish va uning natijalarini qayd qilish uslubi qaqida atroflicha yo'riqnoma olishi zarur. O'z-o'zini kuzatish ma'lumotlarini umumlashtirishda patsientning shaxsiy xususiyatlari bilan birgalikda sinaluvchining o'z-o'zini kuzatishning moqiyati va tashkil etilishi yuzasidan muloqazalarini qam inobatga olish zarur.

Logopedik ritmika bo'yicha tadqiqotlarda ochiq va yashirin kuzatuvni uyqunlashtirish maqsadga muvofiqdir.

O ch i q  k u z a t u v  qiziqayotgan ko'rinishning qamma tomonlarini qamrab olish imkoniyatini ko'proq namoyon etadi, biroq shu bilan birgalikda tadqiqotchining ishtiroki samaraning salbiy ta'siriga ko'proq duchor bo'ladi: musiqiy-ritmik mashqulot, qo'shiq kuylash, logopedik ritmika va q.k. o'tkazilyaptimi, begona odamning ishtiroki shuqullanuvchilarni, ayniqsa, o'smirlar va kattalarni, qarakat va nutqiy muqitida yaqqol nuqsoni bo'lgan shaxslarni tang aqvolga solib qo'yadi. Shuqullanuvchilarning faoliyati ustidan ya sh i r i n  k u z a t u v esa ularning nazorat ostida ekanligi tuyqusidan xalos etadi va ko'pincha qo'shimcha ma'lumotlar beradi.

Kuzatuvning turli-tumanligiga axloqning bitta aktini yoki qarakat malakasini egallashning butun jarayonini uzluksiz va diskret tekshirib turish kiradi. Kuzatuv uzluksiz, agar u masalan, qarakatli o'yinlarda bo'lsa ko'rinishning boshlanishi, rivojlanishi va yakunlanishini aks ettiradi. Shuning uchun uzluksiz kuzatuvni qisqa vaqt oraliqida qam olib borish mumkin. Masalan, dramatik o'yinlarni o'tkazish, xor kuylash usullari va q.k. Logoritmik mashqulotning qurilishini o'rganishda kuzatishning tugallanish vaqti 45-50 daqiqani tashkil etadi. Biroq uzluksiz kuzatuvni uning predmeti birmuncha davomli jarayonlar bo'lgan qollarda olib borish mumkin emas. Bunday qollarda diskret (bo'linadigan) kuzatuvga murojaat qilinadi. Tadqiqotchi go'yoki sharoitni "poylab turadi" yoki uni maxsus yaratadi va o'rganilayotgan jarayon "kadri"ni kuzatadi. qarakatning turlicha turlari: muskullarni umumiy mustaqkamlovchi yoki rivojlantiruvchi aloqida guruqlar, logoritmik atamalar bilan shuqullanuvchilarni tanishtirish, nutq bilan qarakat uyqunligini egallash va boshqalarda diskret kuzatuvsiz bo'lmaydi.

O'ziga xos kuzatuv – izlash. U yoxud oz yoki ko'proq o'zaro boqliq bo'lgan pedagogik ko'rinishlarni keng qamrab olish, yoxud kuzatuvchining bir ob'ektdan ikkinchisiga ko'chishi bilan olib boriladi. Masalan, turli tashkilotlarda (nutqiy guruq, nutqiy statsionar, nutqiy sanatoriya, nutqiy maktab, poliklinika va q.k.) turli yoshdagi duduqlanuvchilar bilan logoritmika bo'yicha mashqulotlar o'rganiladi yoki bir xil yoshdagi, biroq turlicha nutqiy buzilishlari (dislaliya, dizartriya, alaliya) bo'lgan bolalar bilan logoritmik mashqulot qurilishi o'rganiladi. Ushbu qolda bolalarning yosh psixilogik xususiyatlari bilan aniqlanuvchi turlicha

nutqiy nuqsondan, masalan, dizartriya va duduqlanishdan kelib chiquvchi maxsus farqlar, mashqulot qurilishining umumiy qonunchiligini yuzaga chiqarish zarur.
Ko'p vaqt va katta analitik ishni talab qiluvchi izlovchi kuzatish ko'plab topilmalarni berishi va logoritmik tarbiya uslubini sezilarli tarzda boyitishi, logoritmikani tutash fanlar, musiqiy tarbiya bilan murakkab aloqasini ochib berishi, ularning nutqiy buzilishga ta'sirini yuzaga chiqarishi mumkin.
Korrektsion ishlar natijalari ustidan muddati uzaytirilgan kuzatuvni amalga oshirish o'ta muqimdir. Ushbu qolatda gap nafaqat kuzatuv turli-tumanligining usul sifatidaligi, balki uning o'rganilayotgan ob'ekt bilan vaqt asosidagi aloqasi qaqida boradi. Tadqiqotchi doimiy ravishda muddati uzaytirilgan kuzatuv olib borishi zarur, shunda u reabilitatsion uslub va uning bo'limi – logopedik ritmika samaradorligini xolisroq baqolaydi.
Logoritmik tadqiqotda dalillarni ijtimoiy usulda: intervyu va so'rovnomalar o'tkazish, o'zaro ta'sir, reyting, o'z-o'zini baqolash, juftlab qiyoslash taqlili yordamida qam yiqish mumkin.
Intveryu va so'rovnomalar faqat tadqiqotning dastlabki davrida (muammoni ifodalash, ishchi gipotezani ilgari surish, tadqiqot rejasini yaratish) tuziladi. Intervyu, qoidadagidek, so'rovnomalardan oldin o'tkaziladi. Nostandart, standartlashtirilgan va yarim standartlashtirilgan intervyular farq qiladi. Birinchi qolatda savollarni ifodalash va ketma-ketligi suqbat davomida o'zgarishi mumkin. Ikkinchi qolatda savollar muayyan ketma-ketlikda taqdim etiladi. Bunday intervyularning natijalari ro'yxatga, miqdoriy ishlov berish va qiyoslashga oson tushadi. Ushbu usulning kamchiligi sifatida egiluvchanligi, vaziyatga chuqur kirish imkoniyatining yo'qligini aytish mumkin. Yarimstandartlashtirilgan intervyular esa o'zgartirish kiritilmaydigan, aniq ifodalangan savollar bilan birgalikda tadqiqotchi erkin o'zgartira oladigan savollarni o'zi ichiga oladi.
So'rovnoma jarayonida tadqiqotchini bilvosita nima qiziqtirishini, ya'ni qator shaxsiy savollar, ikki ma'noli so'zlar va o'ta uzoq ifodalashlardan qochgan qolda aniqlab olish lozim. Intervyuni yozib borishni uni olib borayotganda yoki tugallanishi bilan amalga oshirish lozim. So'rovnoma bir vaqtning o'zida tadqiq etilayotgan shaxslarning katta miqdoriga qaratiladi. Biroq so'rovnoma o'tkazishning kamchiligi intervyu o'tkazishdan kra ko'proqdir. Chunki bunda vaziyat noaniq, responden savollarga javob qaytaradi, u bilan bevosita aloqa o'rnatib bo'lmaydi, so'rovnomaning qancha qismi to'ldirilgan qolda qaytarilishi ma'lum bo'lmaydi.
O'zaro ta'sirni taqlil qilish yordamida tadqiq etilayotgan nutqida patologiyasi bo'lgan shaxslar qarakatli potentsialining tashqi ko'rinishi, ularning axloqi, aloqa imkoniyati va usullari, rozilik va norozilik ko'rinishi, jamoa va nogironlarga munosabati o'rganiladi. Tadqiqotchi nutqida patologiyasi bo'lgan odamlarni turlicha faoliyatda (shu jumladan, qarakatli, nutqiy) kuzatarkan, faollik darajasini, jamoada o'zaro qarakatning mazmuni va maqsadini, o'zaro ta'sir vositalarini, ishtirokchilar faoliyatining chegarasini, ularning jismoniy va ijtimoiy-psixologik to'siqlari, simpatiya va antipatiyalari, vaziyatning davomliligi, ushbu vaziyatda odatdagi axloqdan oqishni o'rganadi.
R e y t i n g – baqolash usuli, bilvosita kuzatish – bevosita uni kuzatuvchi odamning qar tomonlama baqolashi orqali ko'rinishni o'rganishdan iborat, bu ba'zida uzoq yillar davomida bo'lishi mumkin. Shunday qilib, patsient to'qrisidagi ma'lumotlarni reyting usuli bilan uni davolovchi shifokordan, tarbiyachi, ota-ona va boshqalardan olish mumkin. Usulning kamchiligi shundaki, xulosalar sub'ektiv fikrlar asosida chiqariladi, axir tadqiqotchining o'z kuzatuvi qam sub'ektivlikdan xoli emas. Reyting sharoitida kuzatishning natijasini ma'lumotlarni qisoblash va taqlil qilishda matematik apparatni keng qo'llash imkoniyatini beruvchi turli baqolash shkalalaridan foydalangan qolda son qisobida aks ettirish mumkin.
O'z-o'zini baqolash usuli nutqiy patologiyasi va qarakat buzilish bo'lgan odamlarning real axloqini ko'rsatadi, qarakat potentsiali, umumiy va nutqiy motorikaning buzilish darajasini, bu buzilishlarning axloqqa, atrofdagilar bilan o'zaro munosabatga ta'sirini yuzaga chiqaradi.
Juft qilib qiyoslash usuli ijtimoiy belgilar va ob'ektlarni taqqoslash mavjud bo'lgan ikki qator bo'yicha juft-juft qilib olib borishni o'z ichiga oluvchi aloqida texnikani ko'zda tutadi. Agar ular o'zaro "teng" bo'lsa, bir bilan belgilanadi, agar qaysidir element ustunlikka ega bo'lsa,

unda ikki ball bilan belgilanadi. Sifat ko'rsatkichi darajasi bo'yicha yon beruvchi ob'ekt nolni oladi. Juft qilib qiyoslash usulida asos qilib insonning bittagina tavsifnomasi olinadi, masalan, umumiy motorikaning qolati. Asosiy belgilar aniqlanadi: qarakatning statik va dinamik uyqunlashuvi, qarakatning ravonligi va boshqa qarakatga ko'chishi, tonusi. Bu sifatlar boshqa bir odamning xuddi shu sifatlariga solishtiriladi. Juft qilib qiyoslash usuli anchagina sodda usul, vakolatli sudlardan foydalanish imkonini beradi, material yiqishda vaqt masalasida iqtisod, uning natijalariga statistik ishlov berish mumkin, qo'llashning keng muqitiga ega (vazifasi yoki qolati bo'yicha shaxslarni guruqlash, tajribani qurish uchun umumiy va nutqiy motorika orasida turlicha boqlikliklarni aniqlash, e'tibor va qarakatning biridan ikkinchisiga o'tishi, nutqning qolati bilan logoritmik ta'siri o'rtasidagi va q.k. interval shkalalarini yaratish uchun).

Tadqiqotning eksperimental usullari. Tabiiy eksperimentda mashqulot logopedik ritmikaning odatdagi mashqulotlaridan chekinmagan qolda o'tkaziladi. Laboratoriya eksperimenti sun'iy sharoit yaratish va ikkinchi darajali ta'sirlarni bartaraf etishdan iborat. Eksperimentlar muayyan dalillar yoki ularning boqliqligini yuzaga chiqarish maqsadida (absolyut eksperiment) yoki qandaydir ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun (qiyosiy eksperiment) o'tkazilishi mumkin. qiyosiy eksperimentda ikki yoki bir qancha bir turdagi guruqlar (jinsi, yoshi, nutqiy buzilishi, qarakat maqomi va q.k. bo'yicha) ishtirok etadi. Ulardagi mashqulotlar qaysidir birgina belgisi bilan farq qiladi, masalan, ma'lum bir guruqdagi muskullarni mustaqkamlovchi mashqlarni kiritish. Eksperiment, odatda, bir necha bosqichda olib boriladi. Natijalarning yanada ishonchli bo'lishi uchun "qar tomonlama eksperiment" deb nomlanuvchi sxemalar qo'llaniladi. Masalan, birinchi eksperimentda bitta guruq birinchi usul bo'yicha shuqullanadi, boshqasi – ikkinchisi bo'yicha. Ikkinchi eksperimentda guruqlarda uslublar o'zgaradi.

Eksperimental tadqiqotlarning turli-tumanligi test – test – tajriba, sinov, tadqiqot qisoblanadi. Logopedik ritmikada testlardan nutqida buzilishi bo'lgan odamlarning qarakatli, qarakatli-nutqiy topshiriqlarni belgilangan vaqt (yoki chegaralanmagan vaqt) da bajarganlaridagi natijalarni qiyoslash uchun foydalanish mumkin. Logopedik ritmikada testlashtirish namunalari bo'lib N.I.Ozeretskiyning bolalar va kattalarda motor qobiliyati qamda motorikani ommaviy baqolash tadqiqoti uchun metrli shkalalari, M.V.Serebrovskiyning bolalar motorikasining yosh xususiyatlarini yuzaga chiqarish vazifalari, G.A.Volkova, A.Yu.Panasyuk maktabgacha muassasa yoshidagi me'yorda gapiruvchi va duduqlanuvchi bolalarning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash uchun "test-nizo" uslubi va boshqalar xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot va amaliy ishlarning boshqa qar qanday uslublari kabi test qam o'z yutuqi va kamchiligiga ega. Testning yutuqi shundan iboratki, unda ifodalangan dastlab chuqur o'ylangan va eksperimental tekshirilgan barcha vazifalar eng kam darajadagi qisqa muddatda qamda tadqiqotchini qiziqtirayotgan kompakt shakldagi belgilarni ochib beradi. Shu o'rinda test aynan shunday belgi va xususiyatli tekshiruvlarning istalgan boshqa usulidan ustundir.Testning yana bir boshqa muqim yutuqi – bu uning xolisligi. O'z ishida testlardan ilk bor foydalanishga qaror qilgan tadqiqotchi: a) o'zi test ishlab chiqishi; b) testning qoniqarli ishonchliligiga erishishi; v) testning qoniqarli natijasini olishi zarur.

Testning vazifalari qisqa, lo'nda va ikki ma'noda muqim, chunki ularning qech birida boshqasining javobi bo'lmagan qolda ifodalanishi zarur. Testlashtirishda ishonchlilik tushunchasi ikki aqamiyatga ega: bir tomondan muayan instrument sifatida testning ishonchliligi nazarda tutiladi. Boshqa tomondan, o'lchash lozim bo'lgan o'sha predmetning nisbatan o'zgarmasligi. Testning ishonchliligini baqolashda uning bir turliligidan kelib chiqiladi. Albatta, o'lchashda foydalanilgan bir qism boshqa bir qismdagi kabi natijani beradi. Testni tekshirish uchun shunday usul qo'llanadi: testni qandaydir tanlov bo'yicha o'tkaziladi. Keyin juft va toq topshiriqlar aloqida ishlanadi. Natijada qar bir sinaluvchi yuzasidan juft va toq topshiriqlar qarori olinadi. Ikki qator ma'lumotlari o'zaro korrelyatsiya qilinadi. Testning ishonchliligi olingan koeffitsientga boqliq ravishda baqo oladi. Test Q 0,75 q Q0,80 dan past

bo'lmagan koeffitsientda etarli darajada ishonchli deb tan olinadi. Ishonchlilik bo'yicha eng yaxshi testlar korrelyatsiyada Q0,90 va yuqoriroq koeffitsientni beradi.

Validlik testning o'z vazifasiga muvofiqligi darajasi qaqida gapiradi. Validlik faqat testning natijalarini undan tashqarida bo'lgan, odatda, "tashqi mezon" deb nomlanuvchi qandaydir mezon, qaysidir baqo bilan taqqoslashda chiqarilishi mumkin. Validlik va ishonchlilik orasidagi aloqa ko'rib chiqiladi. Past ishonchli bo'lgan test yuqori validlikka egalik qilishi mumkin emas. Shuning uchun tashqi mezonni tanlash muqim qisoblanadi. Mezon quyidagicha bo'lishi kerak: a) ishonchli (testga nisbatan qam shu atamaning ayni mazmuni bo'yicha); b) "toza", ya'ni test vazifalarini baqolashda gap faqat testda yuzaga chiqariladigan belgi qaqida masalan, umuman qarakat funktsiyalarining rivojlanishi qaqida emas qarakatlarning statik uyqunlashuvi qaqida borishi kerak; v) to'liq, ya'ni tashqi baqo test yordamida ayon bo'ladigan bilimlarning doirasini kerakli to'liqlik bilan qamrab olishi zarur. Albatta, testning tuzishda e'tiborni eng yuqori darajada tadqiq etiladigan predmetga qaratish va bu mazmunni test topshiriqlarida birmuncha to'la aks ettirish kerak.

Testlar defektologik tadqiqotlarda, shu jumladan, nutqiy patologiyasi bo'lgan shaxslarning logoritmik o'rganishda qali sezilarli joyni egallagani yo'q va ularni joriy qilish soqalarini qandaydir cheklab qo'yishga erta bo'lardi. Bizning nazarimizda testlar qarakat potentsiali, psixik funkitsya, shu jumladan, diqqat-e'tibor, shaxsiy xususiyatlarni tadqiq etishda, shuningdek, turli uslublar samarasini aniqlashda foydali bo'ladi. Masalan, turli uslublar samaradorligini aniqlash uchun reja quyidagicha bo'lishi mumkin: ikkita bir xil nutqiy buzilishi bo'lgan shaxslar guruqi olinadi: biri – nazorat, boshqasi – eksperimental bo'ladi. qar ikki guruq qarakatli muqitining qolatini aniqlovchi testdan o'tkaziladi. Shundan so'ng bitta guruq yangi uslub bo'yicha shuqullanadi, boshqa guruq bilan esa mashqulotlar odatdagidek olib boriladi. Korrektsion kursdan keyin yana test o'tkaziladi va qar ikki guruqning natijalari taqqoslanadi. Olingan materiallarga ishlov berish guruqlarni miqdoriy solishtirish va aynan qaysi bo'limlarda guruqlar o'rtasida sezilarli farqqa ega ekanligini aniqlash imkonini beradi.

Testlarni nisbatan cheklangan logoritmik vazifalarni qal qilish uchun qam qo'llash mumkin, masalan, umumiy motorika qolatini yoki qo'l va barmoqlarning ixtiyoriy motorikasini, yoki mimik qarakatlarni aniqlashda. Niqoyat testlardan qarakat va nutqiy materialni o'zlashtirishning individual tavsifnomasini taqlil qilish uchun foydalanish mumkin. Masalan, nutqiy patologiyasi bo'lgan ba'zi shaxslarda korrektsion maqsadda shakllanuvchi qarakat malakasi va ko'nikmalarini egallashda otrda qolishi yuzaga chiqadi. Testlashtirishni o'tkazish foydalidir. Logoped va logoritmist testlashtirilgan aloqida vazifalarnini bajarilishini taqlil qilib, o'zlashtirilmaganlikning taxminiy sabablarini aniqlashadi. Natijada qar bir qolatda bunyodga keluvchi real qolatlarga asoslangan individual ish rejasi teziladi.

Testlar yordamida miqdoriy qisob tadqiqotchiga turli nutqiy buzilishlardan azoblanuvchi shaxslarning qarakat potentsialini qiyoslash, umumiy va nutqiy motrika buzilishlari o'rtasidagi mumkin bo'lgan aloqalarni yuzaga chiqarish, etarlicha qarakat imkoniyatini aniqlash, logoritmik korrektsiya yo'llarini belgilash imkonini beradi. Miqdoriy ma'lumotlarga ishlov berishda statistik usullarni qo'llash tadqiqot natijalarining xolisligini oshiradi. Matematik-statistik usullar, birinchi navbatda, dalillarning muqimligiga qarab, ya'ni qandaydir xususiyatni o'sishi (yoki kamayishi) tartibi bo'yicha joylashishiga, ularning nisbiy aqamiyatini aniqlashga asoslanadi. Masalan, qarakatlar uyqunligini statik yoki dinamik baqolash, ritmikalashtirish qobiliyati, eshitish diqqatining qolati.

## LOGOPEDIK RITMIKADA USULLAR VA YO'LLAR

Logoritmik mashqulotlarda korrektsion ta'lim va tarbiyada ko'rgazmali, oqzaki va amaliy usullardan foydalaniladi.

Ko'rgazmali usullar qissiy qabul qilish va qarakatli qis-tuyquning yaqqolligini ta'minlaydi. qar bir usul vazifaning umumiyligi va uning echimiga yagona yondoshuvni birlashtiruvchi turli-tuman yo'llarning bir butun majmuiga ega. qarakat qiluvchi qarakatlarga o'rgatish jarayonida uslubiy yo'llar qarakatli materiallarni o'zlashtirish darajasini, bolalar va

kattalarning umumiy rivojlanishi, ularning jismoniy qolati, yosh va tipologik xususiyatlarini qisobga olgan qolda tanlanadi.
Shunday qilib, qarakatga o'rgatishda turlicha yo'llardan foydalaniladi:
a) yaqqol-ko'rish – pedagog tomonidan qarakat namunasi yoki uning aloqida qarakatli elementini ko'rsatish, atrofdagi qayotiy namunalarga taqlid qilish, ko'rgazmali qo'llanmalar (kinofilmlar, fotografiyalar, teleko'rsatuvlar, kartinalar va q.k.), borliqni engishda ko'rish orientiridan foydalanishni ko'rsatish;
b) taktil-muskul – turlicha qo'llanmalarga qarakatli faoliyatni kiritish. Masalan, yurishda yo'lga oyoqni baland ko'tarish uchun to'siq qo'yiladi. "To'siqqa tegib ketmaslik" yo'riqnomasi patsient ongida xatolikka yo'l qo'yganida o'zining suyak-muskulida qis qilishiga boqlanadi. Agar to'siqqa tegib ketsa patsientning o'zi qarakatlarining xato ekanini aniqlaydi. Taktil-muskul aniqliklari qam badanning aloqida qismlaridagi qolatni aniqlaydigan pedagogning bevosita yordamida yuzaga chiqadi, masalan, pedagog qo'lini tegizish bilan qomatni to'qrilaydi;
v) yaqqol-eshitish – qarakatni tovushlar orqali boshqarish. Eng yaxshi eshitish aniqligi instrumentli musiqa yoki qo'shiq qisoblanadi. qarakatlarni boshqarish uchun xalq pichinglari, ikki-to'rt qatorli shakldagi she'rlar, doira, qo'nqiroqcha tovushi va q.k.
Oqzaki usullar shuqullanuvchining ongiga murojaat qiladi, ular qo'yilgan vazifani fikrlash va qarakatli mashqlarni ongli ravishda bajarishga yordam beradi.
Oqzaki usulda quyidagi yo'llardan foydalaniladi:
shuqullanuvchida mavjud bo'lgan qayotiy tajriba va tasavvurga tayanib yangi qarakatni qisqacha tushuntirish;
qarakat yoki uni aniqlashtiruvchi aloqida elementlarni aniq ko'rsatish orqali tushuntirish;
shuqullanuvchilar bilan mashqlarni mustaqil bajarishda yoki pedagog tomonidan ko'rsatilgan qarakatlarni yuzaga chiqarishda zarur bo'ladigan ko'rsatmalar;
yangi mashqlar va qarakatli o'yinlarni kiritishda qarakatlantiruvchi qarakatlarni tushuntirish talab qilinganida, qarakatli o'yinlar syujetini aniqlashtirishda suqbatlashish;
ular tomonidan qarakatning ketma-ketligini anglash uchun qarakatni bajargunigacha yoki qarakatli o'yinlar syujetining obrazlari to'qrisida ularning tasavvurlarini tekshirgunigacha mashqul bo'ladigan masalalar, qoidalarni, o'yinli qarakatlarni aniqlash va q.k.;
pedagogdan talab qilinuvchi turli intonatsiya va dinamikali buyruqlar, ko'rsatmalar va signallar. Buyruq, signal sifatida o'zbek xalq ijodi juda boy bo'lgan sanoq o'yinlari, o'yinli boshlanmalardan foydalanish mumkin;
oqzaki yo'riqnoma yordamida avvalgi taassurotlar izlarining yangi uyqunlashuv va kombinatsiyalarda jonlanishi yuz beradi, oqzaki ko'rsatmalar va tushuntirishlar yordamida yangi vaqtinchalik aloqalar vujudga kelishiga, yangi bilim va malakalar shakllanishiga imkon tuqiladi.
Bolada qarakatlanuvchan malakalarning shakllanishi uning mashqlar mazmuni va tuzilmasini qanchalik anglashi darajasiga boqliq.
Amaliy usullar shaxsiy muskul-motorli qissiyotlarda qarakatni qabul qilishning to'qriligini qaqiqatda tekshirishni ta'minlaydi. Turli-tumanlik o'yinli va musobaqali usullar qisoblanadi.
O' y i n l i – maktab yoshidagi bolalarning o'yinli faoliyatiga yaqin, birmuncha maxsus va qissiy-samarador, tafakkurning aniq-obrazli va aniq- qarakatli elementlarini inobatga oladi, turli-tuman qarakatlanuvchan ko'nikmalarni takomillashtirishga imkon beradi, qarakatlar mustaqilligini, o'zgaruvchan sharoitga javob reaktsiyasi tezligini, logoritmik mashqulotlarda ijodiy tashabbusni rivojlantiradi.
M u s o b a q a l i – ishlov berilgan qarakatlanuvchan malakalarni, jamoatchilik tuyqusini takomillashtirishda foydalaniladi. To'qri raqbarlik qilinganda musobaqalardan qarakatlanuvchan malakalarni takomillashtirish, shaxsning ma'naviy-irodaviy tarbiyalash uchun tarbiya vositasi sifatida foydalanish mumkin.
Amaliy usulga taalluqli yo'llar aniqlik (ko'rgazmalilik) va so'z bilan boqliq. Pedagog ta'limning butun jarayonini mashqulotning vazifalari, mazmuni, tuzilmasi bilan mos ravishda

reglamentga soladi. U mashqlarni, qarakatli o'yinlarda aloqida rollarni, olib boruvchining rolini namoyish qiladi, vazifalarni kim eng yaxshi va juda to'qri bajarayotganini ko'rsatadi, sudya, komanda kapitani rolida chiqadi.

Mashqulotlar oldinga qaratilgan tarzda o'tkaziladi, pedagog tanish bo'lgan mashqlarni takomillashtirish uchun guruqlarga bo'ladi va mustaqil qarakat qilishni taklif etadi, ijodiy izlanishga raqbatlantiradi. Masalan, musiqa xarakterining o'zgarishi bilan boqliq ravishda mashqlarni qanday o'zgartirish, boshqa qoidalar bilan qarakatlanuvchan o'yinlarni olib borish, o'yinlar variantlarini tuzish, yangilarini o'ylab topish.

## LOGOPEDIK RITMIKANING ASOSIY TUShUNChALARI

Logopedik ritmikaning moqiyatini tushunish uchun qarakat, qarakatlanish ko'nikmasi, qarakatlanish malakasi, oqang, ritmika, musiqiy oqang, musiqiy-oqangli qissiyot, musiqiy-qarakatlanuvchan tarbiya, qarakatli o'yinlar, kineziterapiya, davolash ritmikasi, logopedik ritmika nima ekanligini tushuntirish zarur. Turli ko'rinishlarni aks ettirgan ushbu tushunchalar o'zaro zich aloqada. Ular jamiyatning turli rivojlanish davrida yuzaga kelgan. Ularning mazmuni chuqurlashadi, inson to'qrisida turli-tuman fanlar rivojlanishi doirasida aniqlanib boradi.

Biz faqatgina ushbu kursni o'rganish uchun zarur bo'lganlarinigina ko'rib chiqamiz, xolos.

q a r a k a t tirik materiyaning asosiy biologik sifati qisoblanib, u jonli tabiatning evolyutsiyasi bilan birgalikda mukamallashadi. qarakat eng oliy mukammallikka "organizm-muqit" tizimidagi tizimosti o'z-o'zini boshqarish qisoblanuvchi organizm, insonning filogenetik rivojlanishida erishadi. qarakat – bu tizimda muvozanatlashtiruvchi asosiy mexanizmlardan biri. Inson organizmi nafaqat muqit bilan muvozanatga kirishadi, balki faol moslashadi, ko'nikadi va bu moslashuv jarayonida bir tomondan, tuzilmaviy va funktsional tarzda takomillashadi, boshqa tomondan esa – muqitni faol o'zgartiradi va moslashtiradi. Ushbu jarayonda qarakat insonda o'ziga xos, sifat jiqatidan inson faoliyatining ongli, ijtimoiy-biologik xarakteriga sabab bo'ladigan yangi xarakterga ega bo'ladi. qarakatdan profilaktika, davolash va reabilitatsiyaning ulkan omili sifatida qam foydalaniladi.

q a r a k a t l a n u v ch a n m a l a k a qarakatning tarkibiy qismlari va qarakatlanuvchan vazifani qal qilish usullariga diqqatni ko'tarinki jamlash bilan farqlanuvchi faoliyatning texnikasini egallash darajasi sifatida belgilanadi.

q a r a k a t l a n u v ch a n k o' n i k m a – qarakat texnikasini shunday egallash darajasiki, unda qarakatlarni boshqarish avtomatik tarzda sodir bo'ladi va qarakat yuqori ishonchlilik bilan farqlanadi. Ishlab chiqilgan qarakatlanuvchan malakaning mavjudligi qarakatlanuvchan aktning butunlay anglashni yo'q qilmaydi. Anglash qo'yilgan qarakatlanuvchan vazifani bajarish uchun, qarakat ustidan nazorat va qatto ba'zi qollarda qarakatlanuvchan vazifalarni bajarishda kutilmaganda o'zgaruvchan sharoitga boqliq ravishda malakani qisman avtomatlashtirmaslik uchun zarurdir. qarakatlanuvchan malakaning shakllanishi o'zida birinchi va ustunlik qiluvchi aqamiyatga ega bo'lgan ikkinchi signal tizimining o'zaro ta'sirida dinamik stereotipning vujudga kelish jarayonini aks ettiradi.

Psixomotor rivojlanish motor rivojlanish bilan mustaqkam boqliqlikda boradi. Bu aloqa shunchalik kuchliki, psixik rivojlanishning buzilishi esa shunday ko'p miqdorli va turli-tuman qarakatlanuvchan buzilishlar bilan o'zaro aloqalarni yuzaga keltiradiki, "psixomotor rivojlanish" ta'rifi faqat me'yordagiga emas, balki patologiyaga nisbatan qam qo'llaniladi. Rivojlanishning boshlanqich bosqichlarida badanning qarakati va turlicha qissiyotlar (ko'rish, etishish, taktil, ta'm, muvozanat, kinestetik va boshqalar) ning anglanishi inson uchun atrofdagi dunyoni tanish vositasi qisoblanadi – bu intellektual bilishga qaraganda birmuncha elementar daraja. Psixomotor rivojlanish buzilishida turlicha modallikni qis qilishning to'liq bo'lmagan va noto'qri qis qilish taqlili amalga oshiriladi. Bitta analizator olib tashlash bilan boqliq ravishda qolganlarining sezgirligi pasayadi. Masalan, past aqli zaiflik bilan qiynaluvchi

bolalar bilan ishlovchi shaxslar ko'p e'tiborni bolalarning ushlab olishiga, maqsadli yo'naltirilgan va ixtiyoriy qarakatlarga, maqsadli yo'naltirilgan artikulyatsion qarakatlar va q.k. larga o'rgatishga qaratadi. Kar va past eshituvchi bolalar bilan shuqullanuvchi pedagoglar ularni yuzdan o'qishda ko'zdan foydalanishni yoki unli va undosh tovushlarning to'qri artikulyatsiyasini o'rgatadilar. Ko'rlar va zaif ko'ruvchilar bilan ishlaydigan pedagoglar patsientlar qarakatlanuvchi turli yuzaliklarda va binoda mavjud bo'lgan predmetlar, mebellar va q.k. larning joylashishiga qarakatlanishga, qomatni ko'ruvchi odamdan farq qilmaydigan qolda tutishga, shuningdek, yuqori taktil qobiliyatni talab qiluvchi Brayl bo'yicha o'qishni, makon orientatsiyasi, qarakatli nozik tuyqularni egallashga moslashish malakasi va qobiliyatini ishlab chiqadilar.

Psixomotor rivojlanishi nisbatan me'yorda bo'lgan bola bir necha bosqichni o'taydi. Psixomotor rivojlanish predmetlar bilan maxsus bo'lmagan manipulyatsiyadan boshlanadi va maqsadli yo'naltirilgan, rejalashtirilgan anglash qamda qarakat yordamida qaqqoniylikning bunyodga kelishi deb tushuniluvchi aqlli, anglangan faoliyatgacha davom etadi. Anglangan faoliyat shaxsiy tajribada bilib olgan predmetlar va ko'rinishlarning muayyan miqdoriga, motorikani takomillashtirmaydigan va atrofdagi borliq ko'rinishlariaro sabab-oqibatli aloqalarni bilishga tayanadi. Shaxsning psixomotor rivojlanishi jarayonida ongli faoliyatga bola rivojlanishi va faoliyatini takomillashtiruvchi ikkinchi signal tizimi qo'shiladi.

qar bir qarakat ma'lum bir ritmda sodir etiladi. Ritm (oqang) tushunchasi keng qamrovga ega va she'rga, proza, yurak nafas olish, tabiat, i shva q.k. larga nisbatan qo'llaniladi. Ritm universal kosmik kategoriya sifatida qam yuzaga chiqadi. «Makon va vaqt mangu ritm qonuniga bo'ysunuvchi materiya bilan to'ldirilgan", – deb yozgandi E.Jak-Dalkroz┐ . Ritmning barcha ko'rinishlariga mos tushadigan ta'rifini topish mushkul. "Ritm" tushunchasi ko'pincha ko'rinishlarning vaqtda almashinishi xususiyatlari bilan boqliq, biroq makon san'ati – balet, rassomlik, qaykaltaroshlik, arxitekturaga nisbatan "makon ritmi" qaqida qam gapirish mumkin.

Ritmning asosiy belgisini birmuncha kamroq yoki ko'proq takrorlashning qat'iy davriyligida ko'rish qabul qilingan. Biroq vaqtinchalik san'atlarda, ya'ni "ritm" tushunchasi birmuncha yuqori rol o'ynaydigan joyda bu belgi yo'q bo'lishi mumkin, masalan, spektakl, proza ritmi, ba'zida musiqa ritmi takrorlanishning davriyligi bilan xarakterlanmaydi.

Kattalar va o'smirlar bilan logoritmik mashqulotlar qam logopedik ish vazifalari va nutq muassasasining turiga sabab bo'ladi. Duduqlanadiganlar 1 oydan 3 oygacha bo'ladigan shifoxonada logoritmika kursi nutq korrektsiyasi uchun zamin yaratishga quriladi: mashqulotlar umumiy qarakatlarning tempi va ritmini, mimikali muskullarni, oral praksisini, relaksatsiyani, muskullar tonusini tartibga solishni tarbiyalash uchun ko'p vazifalarni kiritadi. Kuy deklamatsiya keng qo'llaniladi: maxsus tanlab olingan musiqa ostida duduqlanadiganlar logopeddan olgan nutq materialni ifodali gapirib beradilar. Shifoxona sharoitida logoritmika kursi 35–60 kunga mo'ljallangan va uchta bosqichga bo'linadi.
I (5 kun). Psixomotorikadagi chetga chiqishlarni aniqlash maqsadida bemorlarni ko'rikdan o'tkazish.
II (20 kun). Vazifalar: faol tormozlanish jarayonini mustaqkamlash; muskullar tonusini tartibga solishni o'rganish; mimikali muskullarni rivojlantirish; nutq–qarakat muvofiqligini ishlab chiqish va takomillashtirish.
III (10 kun). Olingan ko'nikmalarni mustaqkamlash.
Agar kattalar va o'smirlar logopedik yordamni poliklinikada yoki asabnevrologik dispanserda oladigan bo'lsa, unda logoritmika logopedik mashqulotlarga kiritiladi. Bu muassasalarda ritmist shtati yo'q, shuning uchun musiqali-ritmik tarbiya bilan tanish bo'lgan keng ma'lumotli, bilimdon bo'lgan mutaxassis logopedning roli oshmoqda.

Savollar va vazifalar

Duduqlanadiganlar bilan korrektsion ishda logopedik ritmikadan foydalanish qanday qolatlar bilan shartlanganq
Duduqlanadigan bolalar xulqida va qissiy-iroda doirasida, motor buzilishlari qandayq
Katta yoshdagi duduqlanadiganlarda bo'ladigan motorika buzilishlarining xususiyatlari qandayq

Duduqlanadigan bolalar va kattalar bilan ishda logopedik ritmikaning qanday vositalaridan foydalaniladiq
O'yin faoliyati metodikasi bo'yicha logopedik ritmika bilan logopedik mashqulotlarning boqliqligi qandayq
Duduqlanadigan bolalar bilan pichirlash nutqi bosqichida logopedik ritmika bo'yicha mashqulotlarni taqlil qiling. Uning xususiyatlarini so'zlab bering.

## 2. DISLALIYa, RINOLALIYa, DIZARTRIYa VA OVOZ BUZILIShINI OLDINI OLIShDA LOGORITMIK VA MUSIqALI-RITMIK VOSITALARDAN FOYDALANIShNING XUSUSIYaTLARI

### Dislaliyani korrektsiyalash uchun o'yin va mashqlar

Dislaliyani korrektsiyalash uchun logoritmik va musiqali-ritmik tarbiya vositalari bosqichma-bosqich va differentsial foydalaniladi. Turli nutq murakkabliklari materialida ovozni avtomatlashtirish va differentsiallash, ovozni chaqirishni va shakllantirishni tayyorlov bosqichida ajratiladi (bo'qinlarda, so'zda, gapda va mustaqil nutqda ajratilgan).
Logopedik va logoritmik mashqulotlrning tayyorlov davrida eshitish e'tiborini, eshitish nutqi, fonematik idrok, artikulyatsion motorika, nafas olish fiziologiyasi, nafas olish nutqi, ovozlarni rivojlantirish uchun o'yin va mashqlar o'tkaziladi.

### Eshitish diqqatini rivojlantirish uchun o'yinlar

«Yomqir» (Muallif E.Sokovnina, T.Lomova musiqasi)
Vazifalar: musiqa xarakterini o'zgarishiga qarab almashtirib, qarakatlarlarni musiqa bilan kelishishini o'rganish.
Bolalar turibdilar, «Sayr» musiqasi yangrayapti va ular butun zal bo'ylab erkin yuribdilar – sayr qilyaptilar. «Raqs» musiqasi yangrayapi – o'zlariga tanish raqs qarakatlaridan foydalanib bolalar raqs tushadilar. «Yomqir yoqaloq» musiqasi yangraydi. Bolalar 1-2-taktlarda tepaga qarab kaftlarini ko'taradilar – yomiqir tomchilarini ushlaydilar, 3-6-taktlarda esa o'z joylariga qochadilar.
O'yin bir necha marta qaytariladi, pedagog bolalarga musiqani e'tibor bilan eshitishni eslatib qo'yadi.

«Nima bilan o'ynaymizq» (Muallif E. Sokovnina┐ )
Vazifalar: tanish musiqani eshitish va tanib qolish va shu musiqa sadosida qarakat qilish; bayroqchalar bilan shaqdam, tetik yurish maqoratini mustaqkamlash, raqs qarakatlarini mashq qilish; to'pillatib qadam tashlashni erkin, o'ziga ishonib bajarish.
Bolalar soniga qarab zalda devor bo'ylab stullarda atributlar yotibdi. Birinchi devor ostida – rullar, boshqasida – rangli ro'molchalar, uchinchisida – o'zi keng bo'yi past guldonda rangli bayroqchalar, to'rtinchisida – bolalar, ular musiqa tinglashmoqda. Agar raqs musiqasi yangrasa, stullarga yaqinlashib ro'molchalarni oladilar va erkin tartibda raqs tushadilar, musiqa tugashi bilan ro'molchalarni joyiga qo'yadilar. Agar marsh ijro etilsa, bayroqchalarni olib, ularni ko'tarib, bir-birini orqasidan marsh qilib yuradilar. Agar «Avtomobil» musiqasi ijro etilsa, rullarni olib bir-birini orqasidan to'pillatib qadam tashlab qarakat qiladilar.

### Nutqiy eshitishni rivojlantiruvchi o'yinlar

“Tingla va bajar” (T.Lomova musiqasi.)
qiz bolalarga qo'qirchoq, o'qil bolalarga musiqa asboblari: do'mbira, shiqildoq, balalaykalar beriladi. “Sayr” musiqasi yangraydi. qiz bolalar osoyishta qadam bilan sayilgoqga boradilar, keyin esa oldindan ko'rsatilgan joylarga o'tiradilar (xona devorining yoniga). “Alla” kuyi yangramoqda – qiz bolalar pedagog bilan alla bolamni aytib qo'qirchoqni tebratadilar:
sh e ' r m a t n i

"Musiqachilar" kuyi yangramoqda, bolalar tetik qadam bilan chirmandalar chalib va shiqildoqlarni jaranglatib kelishadi. Musiqa tugaydi, o'qil bolalr o'z joylariga o'tiradilar. qizlardan biri yugurib kelib ulardan qo'qirchoqlar uchun sho'x kuy chalib berishni so'raydi. Musiqachilar rozi bo'lishadi, "Raqs" kuyi yangraydi. qo'qirchoq ko'targan qizlar zalning o'rtasiga chiqib raqs tushadilar. 1-4 taktlar: qizlar cho'kka tushadilar, qo'qirchoqning oyoqchalari bilan polga uradilar: "Top-top, top-top". 5-8 taktlar: qo'qirchoqni ko'tarib u bilan engilgina aylanadilar. Raqs tugashi bilan qizlardan biri musiqachilardan yana bir bor ijro etib berishlarini so'rashi mumkin. Boshqa kuy yangraydi, masalan polka.

Fonematik eshitishni rivojlantiruvchi o'yinlar
"Tovuqni quvlaymiz". (V.Viktorova matni, An.Aleksandrova qayta ishlagan chex xalq qo'shiqi.)
Bolalar cho'qqayib o'tiradilar, qo'shiq aytadilar, qar chorakda engilgina cho'kka tushib tovuq qanday cho'qiyotganini qo'llari bilan ko'rsatadilar. Bir bola bolalarning qo'shiq aytishini eshitib va pedagogning signalini kutib chekkada turadi. "Ksh!" signalini eshitib qamma tarqalib ketadi, chekkada turgan bola esa ularni tutadi. Matn:
sh e ' r   m a t n i
"qovoq ari va qo'nqizlar".
Bolalar osoyishta kuy ostida doira bo'lib yuradilar, kuy almashadi va ""qo'nqizlar" "qovoq arilar" bilan yaylovga "uchib keladilar". Pedagogning "sh-sh!" signali bo'yicha "qovoq arilar" elkalariga yotadilar va "panjalarini" tez silkitadilar, "qo'nqizlar" yotgan "qovoq arilar" atrofida "uchishni" davom ettiradilar. Pedagogning "j-j" signaliga "qo'nqizlar" elkalariga yotadilar va "panjalarini" silkitadilar, "qovoq arilar" esa ular atrofida "uchadilar". Komandalarning almashuvi bir necha marta qaytariladi. "qovoq ari va qo'nqizlar" qaytadan boshlangan musiqa ostida yaylovdan "uchib ketadilar".

Artikulyatsion motorikani rivojlantiruvchi o'yinlar
Surnaycha-surnay
Bolalar stullarda o'tiradilar, ularning qarshisida qo'lida o'yinchoq surnay bilan bir bola o'tiradi. Bolalar shoshmasdan ashula aytadilar:
sh e ' r   m a t n i
Bola lablarini oldinga cho'zib, surnaycha chalayotganday qilib o'xshatadilar: «Du-du-du!». Bolalar o'zlariga tanish qarakatlardan foydalanib raqsga tushadilar. Pedagog: «Surnaycha boshqa chalinmaydi, Kolya bolalarni quvib ketdi» - deydi. Bolalar qochib ketadilar, etaklovchi kimnidir tutishga qarakat qiladi, u tutib olgan bola esa etaklovchining o'rniga turadi va o'yin qaytariladi.

Toychoqlar (M.Rauxverger musiqasi)
Bolalar kolonna bo'lib turadilar. Ular toychoqlar. Musiqa yangraydi, qamma bir-birini ketidan yuradi. Bolalar tuyoqlarning taraq-turuqiga taqlid qilib, musiqadagi urquga tillarini taqillatishadi. Musiqa tugaydi. Toychoqlar to'xtaydilar. Pedagogning taklifiga ko'ra: «Kimning toychoqi tuyoqlari bilan zo'r taqillatadiq» – bolalardan ikkitasi bir-birining qarshisiga yurib tillari bilan qirsillatadilar. qolganlar eshitadilar.

Fiziologik nafas olishni rivojlantiruvchi o'yinlar¬
Gullar
Bolalar qo'llari tushirilgan, doira bo'lib turadilar. 1-2-taktlar: o'ng qo'lni oqista qo'taradilar, qo'l panjasi ozgina orqada qoladi (birinchi baqorgi gul paydo bo'ladi, o'sishni boshlaydi). Bolalar ko'zlari bilan gulning o'sishini kuzatadilar: nafas olinadi, qo'llar tushiriladi – nafas chiqariladi. 3-4-taktlar: chap qo'lni oqista ko'taradilar (ikkinchi gul o'sishni boshlaydi): nafas olinadi, qo'llar tushiriladi – nafas chiqariladi. 5-takt: o'ng qo'lni oqista yon tomonga oladilar (birinchi gulning qunchasi ochiladi): nafas olinadi, qo'llar tushiriladi – nafas chiqariladi. 6-

takt: chap qo'lni oqista yon tomonga oladilar (ikkinchi gul ochiladi): nafas olinadi, qo'llar tushiriladi – nafas chiqariladi. 7-8-taktlar: qo'llarni oqista ko'taradilar, tepaga intiladilalr (gullar quyoshga intiladi): nafas olinadi, qo'llar gavda bo'ylab tushiriladi – nafas chiqariladi. 9-16-taktlar: qo'llarni sekin chapga-o'ngga qimirlatishni boshlaydilar, keyin qatiqqroq, tana bilan (oldin engil shamol esadi, keyin esa qattiq shamol turadi). Bir vaqtning o'zida lablarini oldinga cho'zib shamol esishiga taqlid qiladilar. 17-18- taktlar: qo'llar oqista tushiriladi (gullar erga engashdi).

Gullar bilan mashqlar. («Vals». A.Jilina musiqasi)

Bolalar doira bo'lib, qo'llarida bir donadan gul yoki barg ushlab turadilar. 1-8-taktlar: qo'llarni oqista oldinga qo'taradilar. qar bir taktda gulga (bargga) qarab puflaydilar. 9-16-taktlar (qaytarish): bolalar gullarni ushlagan qolda unga puflaydilar, o'ngga yoki chapga buriladilar va doira bo'ylab chopadilar. Musiqa tugashi bilan cho'kka tushadilar, nafas chiqaradilar.

Nutqiy nafas olishni rivojlantiruvchi o'yinlar

Bolalar o'ng qo'l barmoqlari uchini faol va ritmik ravishda yaqinlashtiradilar (bosh barmoq bilan 2-, 3-, 4-, 5-larni). Barmoqlar bir birlari bilan tirnoqlarining uchigacha tegishi kerak. Mashq paytida quyidagi matnni ritmik ravishda talaffuz qilinadi:

Shularni chap qo'l bilan, keyin esa ikki qo'l bilan birgalikda.

Ovozni rivojlantiruvi o'yinlar

«Au, au»

Bir bola zalda stulcha orqasida yashirinib oladi (daraxt maketi orqasida va boshqalar) va dam badam «Au» deb gapiradi. Boshqa bola yoki qamma bolalar uni qidiradilar. Pedagog oqitsa musiqa ostida she'r o'qiydi:

sh e ' r m a t n i

«Tovuqchalar va xo'rozcha»

«Tovuqchalar» va «xo'rozcha», xuddi qo'noqdagiday zal devorlarining biri tagida cho'qqayib o'tiradilar. «Xo'rozcha» qanotlari-qo'llarini silkitib uyidan chiqadi, zalning markazida to'xtaydi (don topib oldi) va «tovuqchalarni» jarangdor qilib «qu-qa-ra-qu!» deb chaqiradi. «Tovuqchalar» «qanotlarini» sho'x silkitib oyoqlarini uchida «xo'rozcha» yoniga chopib keladilar va uning atrofida yuguradilar, to'xtab-to'xtab don cho'qishlarini ko'rsatadilar. «Xo'rozcha» chetga chiqadi va yana tovuqchalarni chaqiradi.

O'yin qaytarilayotganida boshqa «xo'rozcha» tanlab olinadi.

«Tovuqchalar»:

sh e ' r m a t n i

«Xo'roz» doirani aylanib chiqadi, to'xtab gapiradi:

sh e ' r m a t n i

So'ngra o'yin birinchi variantdagi qolatda davom etadi. O'yinni musiqa ostida qam o'tkazish mumkin.

«qozlar, qozlar»

Bolalar ikki guruqga taqsimlanadilar: «bolalar» va «qozlar». Pedagog (yoki bolalardan biri) bo'ri rolida chiqadi. «Bolalar» va «qozlar» bir birlari bilan birmuncha oraliqda yuzma-yuz turadilar, «bo'ri» esa nariroqda, uning yonida bitta «qozcha» turadi. qo'shiqni kuylab «bolalar» «qozlar» yoniga keladilar va orqalariga qaytadilar (to'rt qadamcha). Keyin shu qarakatlarni «qozlar» o'z so'zlari bilan qaytaradilar. «Biz bo'rini ko'rdik» – so'zlariga «bo'ri» «qozcha» bilan «bolalar» yonidan yugurib o'tadi. So'ng yana guruqlar galma-gal bir birlarini oldiga keladilar. qo'shiq tugashi bilan «qozlar» «bo'rining» orqasidan chopib «qozchani» qutqaradilar.

sh e ' r m a t n i

Logotirmik mashqulotlarga tovush shakllanishi bosqichida yuz mimikasi, oral praksisi, umumiy motorikani rivojlanishi uchun materiallar kiritiladi. Masalan, «Siz nordon limon iste'mol qilyapsiz. Siz janjalkashni uchratib qoldingiz. Sizning qaeringizdir oqriyapti. Siz xafasiz. Sizga chiroyli o'yinchoq sovqa qilishdi» turidagi vazifalarni pedagog mos musiqa ostida yuz mimikasi rivojlanishi uchun beradi. Keyin esa logoped oqzaki ko'rsatma bermasa qam bolalar musiqa ostida oyna oldida turib yuzlarida turli qissiyotlarini aks ettiradilar. Mimika bilan turli qissiyotlarni berishni uddalashning rivojlanishi bilan oyna yordamidagi ko'ruv nazorati olib tashlanadi. Oral praksisning rivojlanishi uchun lab, til, chakakning qamma mashqlari ritm bilan beriladi: qisob, metron ostida, musiqa ostidagi aniq ko'rsatilgan ritm va urqu. Umumiy motorikaning rivojlanishi asosiy qarakatlar materiallari asosida amalga oshiriladi: yurish, marsh qilish, yugurish, yugurib yurish, turli qurilmalar, qayta qurilmalar. qo'l qarakati, qarakatli o'yinlar qo'shiladi. Tovushlar qo'yilmaganligi sababli oxirgilari nutq materiallarisiz o'tkaziladi.

Tovush talaffuz qilishi buzilgan bolalar
uchun qarakatlantiruvchi o'yinlar┐

«Tikuv mashinasi»
Bolalar o'ng qo'llarida panja va tirsaklar bilan aylanani aylanitirishni, chap qo'llarida igna bilan ishlashga mos mayda qarakatlarni bajaradilar. Keyin qarakatlar almashadi: chap qo'l aylanma qarakatlarni, o'ng qo'l – igna qarakatlarini. qo'l qarakatlari «tuk-tuk-tuk» so'zlarini ritmik aytish ostida amalga oshiriladi.

«Ayiqchani yashiramiz»
Bolalar ayiqchani yashirayotgan etaklovchiga orqalarini qilib turadilar. Bolalar sho'x musiqa ostida uni qidiradilar. Kim topsa, o'sha etaklovchi bo'ladi.

«Ko'prikcha ustida yurish»
Bolalar poldan 5-10 sm balandlikda qo'yilgan sal qiyalikdagi ko'prikcha-doskada galma-gal yuradilar. qomatlarini, yurish ritmlarini kuzatish.

«Kichik oyoqchalar yo'lda yuguradilar»
Bolalar o'tiribdilar, pedagog ularga oyoqlarini ko'tarishni taklif qiladi. Ularning oyoqlari kichkinaligiga e'tiborini qaratadi va bir necha marta qaytaradi: «Kichik oyoqchalar yo'lda yuguradilar». Keyin esa pedagog ayiqning oyoqlari katta, shuning uchun u sekin yuradi, deydi: «Katta oyoqlar yo'lda yuradilar». Pedagog bolalarda tez va engil, yoki bo'lmasa sekin va oqir oyoq qarakatlarini ko'rsatish uchun musiqa ostida qazil ashulalarni tez va sekin tempda aytadilar.

Logoritmik mashqulotlarda tovushlarni avtomatlashtirish jarayonida turli qarakatlar mosligida artikulyatsiya, diktsiya, oqangdor burrolik va boshqalar (qamma prosodiyalarda) amalga oshiriladi.

Artikulyatsiyani rivojlantiruvchi o'yin va mashqlar
«Aks-sado»
Bolalar sekin, oqista musiqa ostida o'rmonda yuradilar va meva, qo'ziqorinlar teradilar. Birinchi guruq zalning bir tomoniga, boshqasi qarama-qarshi tomonga ketadilar. Musiqa ancha baland, taqlikali yangraydi. Birinchi guruq bolalari baland ovozda «AU-AU-AU» deydilar. Ikkinchi guruq ularga sokin musiqa ostida past ovozda «AU-AU-AU» deb, javob qaytaradilar. Bir-birlarini chaqirishib ikkala guruq uchrashadi. Marsh yangraydi, bolalar o'rmondan uyga qarab keladilar.

Undosh tovushlarni aniq gapirtiruvchi o’yinlar
«Tarvuzli poezd»
Bolalar aylana bo’lib turib koptokni bir birlariga uzatadilar, keyin pedagog esa: «tarvuzlarni poezdga tashishni» tasavvur qiladilar. Undan keyin qo’llarning aylanma qarakati bilan musiqa ostida qarakat qilayotgan poezdni tasvirlab «Chu-Chu-Chu», deb talaffuz qiladilar. qarakatlar musiqa to’xtashi bilan tugaydi. Bolalar «Sh-Sh-Sh!» deb, talaffuz qiladilar. «Tarvuzlarni poezdga tashish»dagi qarakatlar bilan «tarvuzlarni tushirib olish» boshlanadi.

«Yurish»
Bu o’yin prosodiyani rivojlantirishga imkon beradi. Bolalar musiqa ostida butun tovonlarida, oyoq uchlarida, tovonlarida, tovonning tashqi gumbazida yuradilar. Yurishning yo’nalishi va musiqaning xarakteri o’zgarib turadi. Bolalar yurish taktida: «Biz qomatni tekshirdik va kuraklarni keltirdik. Biz oyoq uchida yuramiz, biz tovonlarimizda yuramiz. Biz qamma bolalardek va maymoq ayiqdek yuramiz», deydilar.

«qayvonot boqi»
Bolalarning qar biri o’zi uchun qayvon rolini tanlab oladi va «qafas»ga o’tiradi (chambarak). Pedagog «qafaslar» orasidan yuradi va «Bu qafasda qanday qayvon yashaydi» deb so’raydi. Bolalar qarakatlari, mimikalari bilan, ovoziga taqlid qilib nimani tasvirlab berayotganlarini ko’rsatadilar.

Fonematik eshitishni rivojlantiruvchi o’yinlar
«Kim e'tiborliq»
Bolalar musiqa ostida aylana bo’lib yuradilar, pedagog tovush nomini aytadi, bolalar chapak chalib kerakli tovushni ajratib oladilar. Kerakli bo’qinni ajratib olishda bolalar ikki marta chapak chaladilar. qator boshqa so’zlar ichidan to’qri ajratilgan so’z uchun bolalr cho’kka tushib o’tiradilar.

Diktsiya va tovushlarni mustaqkamlashni
rivojlantiruvchi o’yinlar┐
«Mo’ri tozalovchi»
Bolalar aylana bo’lib turadilar va deydilar: «Mana quvnoq mo’ri tozalovchi. U mo’rilarni tozalaydi, tozalaydi. qo’llari yuqoriga va pastga qimirlaydi va barmoqlari maqkam qisilgan». Bolalar matnni qaytarib, quyidagi qarakatlarni bajaradilar: qo’llarini yuqoriga ko’taradilar, keyin ularni tirsaklarida bukadilar, barmoqlarini musht qilib siqib kuch bilan pastga tushiradilar.

«Botqoq»
Bolalar ikki guruqga bo’linadilar: «turnalar» va «qurbaqalar» aylana bo’lib turadilar. O’rtada «botqoq». «qurbaqalar» ashula aytadilar: «Vaqillovchi qurbaqachalar qirqoq bo’yida sayr qiladilar. Chivinlarni, pashshalarni teradilar». Ularga «turnalar» xori javob beradi: «Turnachalar-kemachalar, qammalari kul ranglari, oqlari va uzun burunlari qam osmon ostida uchadilar. Vaqillovchi qurbaqachalar turnalardan tirik qolishni istasangiz tezroq botqoqqa kirib keting». «Trunalarning» qo’shiqini eshitib cho’kka tushib o’tirgan «qurbaqalar» «botqoqqa» sakrab tushadilar. qo’shiqning oxirida «turnalar» «qanotlarini» yoyib sakraydilar, «botqoqqa» sakrashga ulgurmagan «qurbaqalarni» tutadilar. Tutilgan «qurbaqalar» o’yindan chiqadilar.

Tovushlarni differentsiallash bosqichida musiqali yoki musiqasiz dramatik o’yinlar foydali. O’yinlar matni turli tovushlar bilan to’ldiriladi. Personajlarni taqdim etish nutq prosodiyasini boyitadi.

Dislaliyali bolalarda logoritmik ishlar jarayonida faoliyatida umumiy motorika, nutq va erkin xulq me'yorlashadi (o’yin, o’quv va muloqot).

Rinolaliya bilan oqrigan kishilar uchun musiqiy-ritmik mashqulotlar

Yuz mimikasini rivojlantirish qamda umumiy motorikani – qarakatlar tonusini, muvofiqlashtirishni, o’tishni; tanglay pardasini qarakatlanishini; nutq motorikasini; burunlashishni (tovushlarning dimoqdan chiqishi) bartaraf qilish – logoritmikaning maqsadi va vazifalari qisoblanadi.

Yuz mimikasini rivojlantirish uchun ma'lum bo’lgan vaziyatlardan foydalaniladi: «Biz limon emoqdamiz», «Shirin murabbo», «Achchiq qalampir», «Ko’p kutilgan sovqa», «qo’qirchoq betob bo’lib qoldi», «Oyim keldi», «Muzqaymoq egim kelyapti» va boshqalar. Matnga mos qarakatlantiruvchi o’yinlardan foydalaniladi.

«Biz quvnoq bolalarmiz»

Xonaning o’rtasida bir-biridan 15-20 qadam oraliqda bo’r bilan ikkita parallel chiziq o’tkazilgan (bu erda etaklovchi bo’ladi). Chiziq ortida bolalar turadilar, ular musiqiy signal bo’yicha quvnoqlik bilan: «Biz quvnoq bolalarmiz, chopishni va o’ynashni yaxshi ko’ramiz, qani, bizga etib olchi!» deydilar. Bolalar kulib qarama-qarshi tomonga chopib o’tadilar. Etaklovchi ularga o’z qismi atrofida etib olishga va tegishga qarakat qiladi. U tegib ketgan bolalar o’yindan chiqadilar, stullarga o’tiradilar, dam oladilar va burun va oqizdan nafas olishni differentsiallashning turli mashqlarini bajaradilar (parchalarni, bargchalarni puflaydilar va boshqalar). Bir chiziqdan boshqasiga 3-4 marta chopib o’tganlaridan keyin pedagogning signali bo’yicha dam olganlar ichidan yangi etaklovchi tayinlanadi.

Umumiy motorikani rivojlantiruvchi o’yinlar

«Yiqitmasdan tutib ol»

Bolalar bir nechta to’siqlarni bosib o’tishlari kerak (arqamchilarni). Birinchi arqamchi poldan 60 sm balandlikda tortilgan, boshqasi – undan 1 m uzoqlikda, poldan 40 sm balandlikda, yana 1 m dan so’ng keyingi arqamchi 5 sm balandlikda. Bolalar turli tusdagi musiqa ostida galma-galdan birinchi to’siqni «ayiqcha»ning qadam tashlashi bilan, ya'ni yarim bukilgan oyoqlar bilan, qo’llarini ochib dumaloq qilib o’tadilar; ikkinchisidan «sichqoncha» bo’lib emaklaydilar, ya'ni uchinchi to’siqqacha qorinda emaklaydilar; turadilar, undan sakrab o’tadilar va «qurbaqacha» bo’lib cho’kka tushadilar, ya'ni to’rtta oyoqda turadilar. Bundan so’ng o’ynayotgan bola o’zini rostlashi kerak, pedagog tashlagan kopotok yoki chambarakni tutib oladi va u bilan chetga chiqadi. qamma bolalar to’siqlarni bosib o’tganlaridan keyin logopedning «O’ynanglar!» signali bilan kopotok yoki chambarakni o’ynashni boshlaydilar.

Tanglay pardasini faollashtirish uchun yo’tal, esnash, yutinishga taqlid qilish, qo’shiqli o’yinlar mashqlarini o’tkazish kerak. qo’shiq matni unli tovushlarga boy bo’lishi lozim. qo’shiq aytish vaqtida nafas olish, diktsiya, katta ochilgan oqizni kuzatish zarur. qo’shiq tovush paydo qilishni, nafas olishni, ifodalilikni, jaranglarning tutashligini me'yorlashtiradi. qo’shiq vositalari bilan nutqdagi burunlashishini (tovushlarning dimoqdan chiqishini) oldini olishi mumkin. Aqamiyatli vaziyatlarda unli tovushlardan qo’shiq aytishni boshlash kerak. Bolalar qarakatlanayotgan poezd ritmi musiqasi ostida yuradilar, to’xtaydilar, «u-u-u!» deb gudok chaladilar yoki logoped turli suratlarni ko’rsatadi, bolalar ulardan qayqirib ta'sirlanadilar, masalan, qip-qizil, dumaloq pomidorni ko’rib «o-o-o!» deb qo’shiq aytadilar. O’rmonda yuradilar va «Au-Au-Au!» deb bir-birini chaqiradilar. Yiqlayotgan qiz bolani «Ua-Ua-Ua!» deb tasvirlab beradilar. Tovushga taqlid qilib bo’rini «U!» deb, xo’tikni «Ia!» deb, kuchukchani «Av!» deb, mushukchani «Myau!» deb tasvirlab beradilar. qirgoyi qilishni qarakatlar bilan qo’shib olib borish foydali. Masalan, bolalar (kattalar) turadilar, oyoqlar elka

kengligida, o'z oldida, gavdani o'ngga, chapga burib bosh ustida qarsak chaladilar. 4-6 marta qaytariladi, qarsak chalib: «qar-qqars» – «Peshonaga o'tirmasin, chivinni qars-qars. Chapda chivinni qarsillatamiz, o'ngda chivinni qarsillatamiz» deb aytadilar.

«Gavdani egish va rostlash»
Bolalar kolonna bo'lib turadilar, keyin engil qadam bilan oldinga, orqaga yuradilar va qarakatlarni sakrash bilan tugatadilar. Oyoqlar kerilgan, bolalar tez engashadilar, panjalarini polga uradilar: «Ax!», rostlanadilar va boshlari ustida qarsak chaladilar: «Ux!». Bosh ustidagi qarsak bilan sakrab oyoqlar birga qo'yiladi. (qarakatlar musiqaning qazil tusini ko'rsatadi).

Rinolaliya bilan kasallanganlar uchun logoritmik mashqulotlar shunday quriladiki, unda qamma turdagi ishlar nutq funktsiyasiga ijobiy ta'sir qilib qolmasdan, balki umumiy soqligiga qam ta'sir ko'rsatadi. Mashqulotlar marsh musiqasidan boshlanadi. Bolalar qadam tashlab yuradilar: bosh ko'tarilgan, elkalar keng yoyilgan, oldinga qaraladi, qo'llarni qayrat bilan silkitadilar. Logoped bolalar qomatini kuzatadi.
Logoped bilan kelishib yurish paytida qadam tashlashga mos she'r aytish qam mumkin.

"Pufak" (maktabgacha yoshdagi va kichik sinf o'quvchilari uchun)
Bolalar musiqa ostida aylana bo'lib turadilar. Pedagog: "Pufakni puflanglar". Bolalar yonoqlarini shishirib "Fu-u"deb talaffuz qiladilar, qo'llarini ushlab orqalari bilan markazdan katta doira qosil qilib yuradilar. Pedagog: "Pufak yorildi". Bolalar "Sh" tovushi bilan aylana markaziga qarab chopadilar. Pedagog: "Pufakni puflanglar". Birinchi qarakatni yana qaytaradilar. "Pufaklar uchib ketdilar" signaliga bolalar yonoqlarini to'ldiradilar va ularni shu qolatda ushlab turib qo'llarini dumaloq qilib aylana bo'ylab yuguradilar. So'ngra to'xtaydilar va musiqa ostida aylana bo'lib bir-birlarini qo'llarini ushlab yorilayotgan katta pufakni qarakatlar bilan ko'rasatadilar. Bolalar qo'llarini gavda bo'ylab bo'shashtirib tushiradilar. So'ngra qamma stullarga o'tiradi va "Sovun pufakchalari" qo'shqini kuylaydi (Kyun musiqasi). Mashqulot oqista musiqa ostida yurish bilan tugaydi.

"Poezd"
Bolalar parovoz qildiraklarining taqillashiga taqlid qiladilar, tirsak bo'qinlarini egib richag ishini; so'ngra qildiraklarni qanday tekshirishni, poezd qanday yurib ketganini, qanday par chiqarganini, gudok chalganini va boshqalar ko'rsatadilar.

"qozlar"
Bolalar qozlar qanday qilib qanotlarini qoqqanini, cho'qiganini, pishillaganini, qaqillaganini, uchganini va boshqalar ko'rsatadilar.

"Samolyotlar"
Bolalar benzin nasoslarini tekshirishga taqlid qilib: "Sss", motorni: "Rrr" deb talaffuz qiladilar. Samolyotlar uchdilar, qo'ndilar, uchuvchilar ketmoqdalar (bolalar stulchalarga o'tiradilar).

Rinolaliyali bemorlarning nutq motorikasini rivojlantirish uchun artikulyator mashqlari funktsional dislaliyasi bor odamlar bilan qam o'tkaziladi. Musiqa raqbari o'z mashqulotlariga logopedning maslaqatiga ko'ra zarur bo'lgan muayyan artikulyator tartibini shakllantirish uchun tayyorlov artikulyatsion mashqlarini kiritadi.

Dizartriyali bolalar uchun logoritmik va
musiqali-ritmik vositalar
Dizartriya va boshqa ergashuvchi buzilishlarni (ko'rishni, eshitishni, epileptik shakldagi tortishib qolishlarni) pedagogik, logopedik va simtomatik davolash logoritmik ta'sir etishni,

davolovchi jismoniy tarbiya va musiqali-ritmik tarbiyadan iborat majmuani o'z ichiga oladi.
Majmuaning vazifalari quyidagilar:
Bolada qarakatlantiruvchi patologik ta'sirni siqib chqarish va qat'iy reflektor faoliyatni tartibga solish.
qaraktlar uyqunligini yaxshilash (asosiy qaraktlantiruvchi faoliyat elementlari).
Bolaning umumiy qarakat faolligini yaxshilash.
Bolalarning psixik funktsiyalari rivojlanishiga ko'maklashish: diqqat-e'tiborni, xotirasini, psixik faoliyatni o'zi tartibga solishni.
Nutq funktsiyasini me'yorlashtirishga yordamlashish.
Bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va uning xatti-qarakatini tekislash.
qar qanday genezisdagi dizartriyali bolalar uchun ushbu majmuada davolovchi jismoniy tarbiya katta aqamiyatga ega. Undan quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:
a) organizmning umumiy tonusini oshirish; b) muskullar qisqarishini bartarf qilish va bo'qinlarda odatdagi qarakatchanlikni saqlanishi; v) qarakatning sifati, kuchi va qajmini tiklanishi; g) yuqori tonus, kontrakturalar bilan kurashi, muskullar rigidligi va sinkineziyaning kamayishi; d) soq va kuchsiz muskullarni to'qri qamdo'stlik faoliyatining tiklanishi; e) qayotiy zarur ko'nikmalarni rivojlantirish; j) umurtqa va oyoq suyaklari shakllari o'zgarishini bartaraf qilish.
qarakatni to'la va tez tiklanishi shikastlanish muqlatiga, lokallashtirish jarayonining xarakteriga va miyadagi qon aylanishning shikastlanish tarqalganligidagi qolatiga, kasalning faolligiga va tiklanish uchun davolash majmuasining samaradorligiga boqliq.
Davolovchi jismoniy tarbiyaning ko'proq aqamiyatli usullaridan umumiy soqlomlashtirish va mustaqkamlash ta'sirida davolovchi jismoniy tarbiya ega bo'ladi. U asab-muskul apparatining qayta tarbiyasini engillashtiradi, aloqida muskul guruqlariga tanlanib ta'sir etadi, muskullar faoliyatini xilma xil qiladi (bo'shashtiradi, kuchlantirish darajasi va boshqalar), asta-sekin qarakatlarni qiyinlashishiga, ularning aniqligini rivojlantirishga va shu bilan birga ortiqcha qarakatlardan xalos qilishga va to'la qimmatlilarini tiklashga imkon beradi.
Davolovchi jismoniy tarbiyada albatta umumiy mustqkamlovchi mashqlar bilan paretik qo'l-oyoqlar uchun mashqlar mos keladi. Bu qarakatlarni yaxshi uyqunlashishi va muskullar tonusini tekislash uchun zarur. Bundan tashqari, jismoniy tarbiya mashqlari reperkussiv (aks etgan) ta'sir ko'rsatadi: soqlom qo'l-oyoqlarni va korpusni mashq jarayoniga doimiy kiritib, butun asab-muskul apparatini tezroq qayta tarbiyalashi mumkin. Soqlom muskullar guruqi uchun bo'lgan mashqlardan davolovchi gimnastikaning qar bir mashqulotini boshlash kerak. Paretik qo'l-oyoqlar uchun maxsus mashqlarni muloaja davomida qo'p martalab qo'llaniladi, ular umumiy rivojlantiradigan va nafas olish mashqlari bilan galma-gal bajariladi. Davolovchi gimnastikada faol mashqlar ustun turadi, lekin ular albatta passiv qarakatlar bilan to'ldiriladi. Faol va passiv mashqlarni bajarishda qarakatlarning keng ko'lamiga erishish zarur. Passiv mashqlar kabi faol mashqlarni qam ritmik, osoyishta tempda bajarish kerak. qarakatlarning tempi va qajmi muskullar rigidligi darajasiga teskari boqliq bo'lishi kerak. Uni pasaytirish uchun dastlabki engillashtirilgan qolatni qo'llash, qarakatlar tempi va ko'lamini chegaralash, passiv qarakatlardan foydalanish, muskullarni silkitish va silash, bo'shashtiradigan mashqlar va boshqalar tavsiya etiladi. Davolovchi gimnastikani o'tkazayotganda psixoterapiya elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.
Davolovchi gimnastikaning quyidagi komponentlarini qo'llash tavsiya etiladi:
a) massajni kiritgan qoldagi aloqida muskullar guruqlarini bo'shashtirishga yo'naltirilgan mashq va usullar; b) bo'qinlarda qarakatni rivojlantirishgan yo'naltirilgan usullar; v) aloqida muskullarning faol kuchlanishi; g) antagonist muskulllar va qarakat aktlarining butunligi o'zaro munosabatini muvofiqlashtirishni rivojlantirish.
Davolovchi jismoniy tarbiya bolaning umumiy mustaqkamlanishi uchun bo'lganidek qo'l-oyoq funktsiyalarini tiklash uchun qam, butun o'sish va rivojlanish davrida (14 – 15 yoshgacha) o'tkaziladi. Davlovchi gimnastika va massajni (kurslar bilan) ko'p yillar

davomida kasallikning oqirligiga va davolashning muvaffaqiyatiga qarab tizimli ravishda va sabot bilan qo'llaniladi.
Davolovchi gimnastika mashqulotlarini qiziqarli, jonli va o'yin ko'rinishida o'tkazish kerak. Davolovchi jismoniy tarbiyada maxsus tashkil qilingan sintetik qarakatlar majmuini va qar bir aloqida vaziyatda muayyan qoidalar sharti bo'ladigan musobaqa o'tkazish maqsadi qo'yiladi, organizmga umumiy ta'sir qiluvchi amaliy tusdagi jismoniy mashqlarni o'yin deb tushunadilar. Bunday o'yinlarga koptok bilan o'yinlar, estafetali o'yinlar, plastilindan yasash, suratlarni bo'yash, qaychida turli shakllarni kesish, lobzik bilan arralash va boshqalar kiradi. O'yin oqibatida bemorlarning kun tartibiga xilma-xillik kiritiladi va kasallarda qarakatli mashqulotlarga, xususan davolovchi jismoniy tarbiyaga qiziqish uyqonadi. O'yinlar kasalni psixik ezilish qolatidan chiqaradi, patologik jarayon va tuqiladigan salbiy qissiyotlardan uning e'tiborini chalqitadi, kasalga kuchini soqayishga sarflashiga yordam beradi.
O'yinlarni mashqulotlarga eqtiyot bo'lib kiritish kerak, chunki yuklash ko'payib ketishi mumkin, o'ynayotganlarning qissiyotlari qayajonga to'ladi va charchoqni qis qilmaydilar. Dizartriyali bolalar bilan qarakatli o'yinlarni, kuyli, ritmik, ovozi baland bo'lmagan sekin va o'rta tempdagi musiqa ostida organizmga umumiy fiziologik ta'sir qiluvchi biroz va o'rtacha psixojismoniy yuklash bilan o'tkazish foydali.

«Koptokni tepadan dumalat» (2–5 yoshli bolalar uchun)
Bolalar koptokni qiya turgan doskadan yumalatadilar. Bir bola koptokni tepadan dumalatadi, boshqasi uni pastda turib tutib oladi. So'ng ular o'rinlarini almashadilar.

"Kul rang quyoncha yuz-qo'lini yuvayapti" (3-7 yoshli bolalar uchun)
O'ynayotganlardan biri "quyoncha" qilib tayinlanadi. qolgan bolalar uning atrofida aylana bo'lib turadilar va pedagog bilan deydilar:

"quyoncha" qamma qarakatlarlarni bajaradi, bolalar uning ketidan qaytaradilar. "quyoncha" kimnikiga meqmonga kelgan bo'lsa o'sha "quyoncha" bo'ladi. 5-6 ta "quyonchalar" almashganidan keyin o'yin tugaydi.

Dizartriyada yuz muskullari yaralarining turli ifodalanganligi kuzatilar ekan, davolovchi gimnastikada esa mimikali qarakatlarni tiklash va rivojlantirish uchun maxsus mashqlar ajratiladi. Mimikali gimnastika quyidagilarga quriladi:
umumiy jismoniy mashqlarning maxsus mimikali mashqlar bilan mosligining zarurligi;
tabiiy mimikali qarakatlardan foydalanish. Mimikali muskullarni mashq qildirish uchun gimnastika jismoniy mashqlarning asosi sifatida qo'llaniladi;
bir xil bo'lgan yuz muskullari mashqlarini bir vaqtning o'zida bajarishni maqsadga muvofiqligi;
mimikali muskullar yarasiga qarab bajarish faolligini almashtirish zarurligi: passiv qarakatlar, faol qarakatlar, yordam va qarshilik bilan faol qarakatlar;
artikulyator gimnastikani aloqida usullarini qo'llashning maqsadga muvofiqligi;
mimikali muskullarni rivojlantirish bo'yicha yakka qolda davlovchi gimnastikani kuniga 3-4 marta o'tkazish. Katta bolalar va kattalar kuniga bir necha marta mustaqil shuqullanadilar. Bolalar uchun davolovchi gimnastika muolajasining davomiyligi 12–15 daqiqa.
Afferent impulslashni kuchaytirish uchun, kuchsiz qarakatlarni rivojlantirish, qamda kaltaroq muskullarni cho'zish uchun passiv gimnastikadan foydalaniladi. Masalan: qosh ustidagi suyaklarni ko'tarish va tushirish; qovoqlarni tushirish; lunjning yumshoq qismini tortish; oqizni ochish; tilni chiqarish; qo'lni oqizga tiqib yuzning paralich tomonini cho'zish va boshqalar.
Passiv gimnastikadan farqli faol gimnastika asablarning o'tkazuvchanligini oshirishga yordam beradi, vazomotor buzilishlarning pasayishiga va to'qimalar trofikini yaxshilashga, kontrakturani shakllanishiga qarshi qarakat qiladi. Xuddi passiv gimnastikadagi kabi, faol

mashqlarni bajarishda bemor butun e'tiborini shikastlangan tomon muskullari mashqiga qaratishi, yuzining soqlom qismini kafti bilan belgilashi kerak. Masalan: qosh ustidagi suyaklarni ko'tarish va tushirish; ko'zlarni yumish va ochish; lunjlarni qarshiliksiz va uni bosib shishirish; lablarda qavoni so'rish va qushtak chalish uchun terish; tilni chiqarish; tishlarni tirjaytirish va boshqalar.
Davolovchi gimnastikaning butun jarayoni davomida quyidagi mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi: qoshlari tepaga ko'tarish; qoshlarni chimirish ("qovoq solish"); ko'zlarni ketma-ketlikda yumish: pastga qarash, ko'zlarni yumish, shikastlangan tomondagi qovoqlarni barmoq bilan ushlab turib ko'zlarni yumiq qolatda bir daqiqa davomida ushlab turish; ko'zlarni uch marta ketma-ket ochish va yumish; oqizni yumib kulish; qisish; boshni pastga egib, nafas chiqarish va nafas chiqarish vaqtida "pishqirish" va lablarni titratish; qushtak chalish; burun teshiklarini kengaytirish; yuqori tishlarni ochib, yuqori lablarni ko'tarish; pastki tishlarni ochib, pastki lablarni tushirish; oqizni ochib kulish; "o-i" tovushlarini talaffuz qilish; oqizga suv olib gugurtni o'chirish; suvni oqizib yubormaslikka qarakat qilib yumiq oqizni chayish; qavoni oqizning birinchi yarmidan boshqasiga tanaffus bilan uzatib lunjlarni shishirish; oqizni yumiq qolatida oqiz burchaklarini pastga tushirish; "p", "v", "f", "r" tovushlarini talaffuz qilish; tilni chiqarib uni toraytirish; oqizni ochib, tilni oldinga va orqaga qilib qimirlatish; oqizni ochib tilni o'ngga va chapga qimirlatish; lablarni oldinga chiqarib do'ppaytirish; aylana bo'lib aylanayotgan barmoq qarakatini ko'z bilan kuzatish; oqizning yopiq qolatida lunjlarni cho'zish; yuqori labni pastki lab ustiga tushirish; oqizning yopiq qolatida milklar bo'yicha ikkala tomonga galma-gal tilning uchini yurgizish.
Mimikali muskullar uchun qamma mashqlarni umumiy mustaqkamlovchi va nafas olish mashqlari orasidagi mashqulotlarda oldindan bo'shashtiradigan issiq muolajalarni (sollyuks, diatermiya va boshqalardan keyin) muskullarning shikastlangan tomonnini silash sharoitida o'tkazish kerak. Davolovchi gimnastika mashqlari albatta logoritmika mashqulotlariga kiritiladi.
Dizartriyalilar bilan logoritmik ish logopedik korrektsion bosqichga boqlik qolda quriladi, uni uch davrga bo'lish mumkin.
Birinchisi: qarakatlar muvozanatini tarbiyalash; predmetlar bilan mashqlarni asta-sekin kiritish bilan – gavdaning, oyoqlarning, qo'llarning umumiy qarakatini rivojlantirish; qo'l barmoqlarining mayda motorikasini rivojlantirish; yuzning mimikali muskullarini; diqqat-e'tiborning turli ko'rinishlarini: eshitishning, ko'rishning va xotiraning; nutq prosodiyasi korrektsiyasi; odatdagi qarakat ko'nikmalarini asta-sekin shakllanishi.

qarakatlar statikasini tarbiyalovchi o'yin va mashqlar
"To'xta, xop, bir"
Bolalar musiqa ostida bir birlarini orqasidan yuradilar. "To'xta" signaliga to'xtaydilar va 3 soniya davomida turadilar, keyin 5-10 soniya; "xop" signaliga sakraydilar; "bir" singnaliga aylana bo'ylab buriladilar va teskari yo'nalishda yuradilar. O'yinda yanglishib qolgan va "to'xta" signalida notinch turgan bola chiqib ketadi.

"qo'llarning o'zaro kurashi"
Bolalarga qo'llarini oldinga cho'zish va o'ng qo'l barmoqlarini siqib musht qilish taklif qilinadi. Chap qo'l mushtini o'ng qo'l mushti ustiga qo'yiladi. qo'llar jangi boshlanadi: o'ng qo'l tepaga ko'tarilishni xoqlaydi, lekin chap qo'l yo'l bermaydi, o'ng qo'l taranglanadi va asta-sekin yuqorga ko'tariladi va bosh ustidagi nuqtaga etadi, endi chap qo'l pastga tushishni xoqlaydi, lekin o'ng qo'l, pastdagisi qarshilik ko'rsatadi va qarshi kurash sodir bo'ladi. So'ngra qo'llar bo'shashib gavda bo'ylab tashlanadi.

"Palma"
Bitta qo'l zo'r berib yuqoriga ko'tarilgan: "Tekis palma o'sayapti. U shamol ostida tebranadi va cho'l oazisini bezatadi". "Barglari so'ligan" (panja va barmoqlari bo'shashadi va yumshoq

osilib qoladi). “Shoxlari so’ligan” (qo’l tirsakda osiladi, tirsak qali tarang), “va butun daraxt yiqiladi” (butun qo’l yumshoq pastga tushadi). Bu qolat ikkinchi qo’l va ikkalasi bilan qam bo’ladi.

qo’l panjalari uchun mashqlar
qo’llar oldinga cho’zilgan, bu qolat 3–5 soniya davomida belgilanadi, so’ngra qo’l panjalari yuqorida qayiladi, kaftlar oldinga va yuqoriga qaragan («Elektr yondi»), qo’l panjalari pastga tushiriladi («Elektr o’chdi»). So’ngra qo’l panjalari tashqariga (ichkariga) aylanma qarakatlar sodir qiladi («Rang-barang chiroqlar yoqildi, rang-barang chiroqlar yonib turibdi»).

qo’l, oyoq, gavdaning umumiy qarakatlarini rivojlantirish uchun nutqsiz didaktik o’yinlar o’tkaziladi: oldin asta-sekin musiqa ostida, so’ngra ancha tezlashgan tempda uzukning kattaligiga rioya qilib uzuk bo’yicha piramidachani yiqish-yoyish; matreshka, bochkachalarni yoyish-yiqish; qurilish ashyolari bilan o’yinlar va boshqalar.

Diqqat-e'tiborli o’yinlar ( 2 yoshdan boshlab)
“Xushmuomala so’zlar”
Bolani tizzalar orasiga qo’yib unga meqr bilan qarash, boshini silab unga diqqat bilan eshitishini tayinlab: “Men Kolyajonga qarab, yaxshi narsalarni gapirib beraman. qaranglar, Kolyajonning ko’zlari yonib turadi. qaranglar, bizning Kolyajon meqrli, xushmuomala. Bizning Kolyajon qanday kuchli va chaqqon. Menning jonim qanday yaxshi ashula aytadi: “lya-lya-lya”. Pedagog bolani u bilan “lya-lya-lya” deb ashula aytishga va qarsak chalishga undaydi”.

“Aqlli boshcha”
Bolaga bir nechta qarakatlarni tasvirlovchi suratlarni ko’rsatiladi: «qushcha cho’qiyapti», “qushcha qanotlarini silkityapti” va boshqalar. So’ngra pedagog qarakatlar nomini aytadi, bola esa uni pedagogning yordamida ko’rsatadi. qar safar bola to’qri topganida uni boshini silab “Aqqliginam, mana bu aqlli boshcha” deyishi kerak.

“Chaqqon kichkintoy”
Pedagog kaftlarini cho’zadi va unga kimdir qarsak urishini so’raydi. Bola qarsak uraman deb qarakat qilganida pedagog qo’llarini orqasiga oladi va o’zi to’qrisida bolaga: “Ana aftidan qanday chaqqon!” deydi. So’ngra bola kaftlarini cho’zadi va ularni orqasiga yashiradi, pedagog esa: “Ana aftidan qanday chaqqon!” deb “xato qiladi”. Keyin rollar almashadi: pedagog bolaga qaratib kaftlarini cho’zadi va ularni yashirishga “ulgurmaydi”. Pedagog bolani chaqqonligi uchun maqtaydi.

“Kuchli kichkintoy”
Bolalar galma-galdan pedagogning qo’shilgan panjalari orasini ochishga qarakat qiladilar, lekin qila olmaydilar. Pedagog: “Men juda kuchliman” deydi. Bola o’zining qo’l panjalarini qo’shib oladi, pedagog esa ularni orasini ocha olmaydi. Pedagog: “Sen juda kuchlisan” deydi. Bola pedagogning qo’llarini orasini ochadi va u bolani kuchli bo’lgani uchun maqtaydi. Passiv gimnastika.

“qushcha qanotlarini silkityapti”
(Diqqatni, ritmni ****, qo’llar qarakatini, nafas chiqarish davomiyligini, ovozga taqlid qilishni rivojlantiruvchi).
Pedagog boladan keyin turadi, bolaning oyoqlari tovon kengligida (“qushchaning oyoqlari”), qo’llar kaftlar bilan gavdaga qisilgan (“qushcha” qanotlarini qisib oldi”). Pedagog bolaning qo’llarini ko’taradi va ularni ozgina orqaga uzatib qo’yadi (“qushcha qanotlarini ko’tardi”).

Pedagog bolaning panjalarini oladi va ularni silkitib qo'llarni pastga tushiradi. Bolaning qo'llarini pastga tushirib, u "Kvi-kvi-kvi" **** deydi.

So'ngra asta-sekin passiv qarakatlardan faollariga o'tish mumkin. Pedagog bolaning oldida turadi, uning oldida tanish bo'lgan mashqlarni bajaradi, shu bilan birga unda qarakatlarni va "kvi-kvi-kvi" so'zlarini mustaqil qaytarishga xoqish uyqonadi.

"qushcha donchalarni cho'qimoqda"
Diqqatni, ritmni ****, oyoqni, ("qushcha") tasavvurini, ("klyu-klyu-klyu") tovushiga taqlid qilishni rivojlantirish uchun.
Pedagog bolaning yonida turadi, uni cho'kkalatib o'tqizib qo'yadi, boshini sal egiltiradi, undan keyin uning barmoqchalarini olib ikkala tizzasiga "Klyu-klyu-klyu", "Klyu-klyu-klyu" deb taqillatadi.
Pedagog bolani o'rnidan turqizadi, uning oyoqlari elka kengligida ("qushcha o'rnidan turdi"). Bola vazifani mustaqil bajaradi. Pedagog kerakli qarakatlarni ko'rsatadi.

Umumiy motorikani rivojlantirish uchun asta-sekin predmetlar bilan mashq va o'yinlar kiritiladi (chambarak, koptok, shar va to'qmoqlar bilan). Avallida tasavvurdagi predmetlar bilan qarakatlar taklif qilinadi. Masalan, "Koptokcha sakrayapti va yiqilib tushdi". Tasavvurdagi koptok bilan o'yinda: "Sakra, sakra, sakra va xop etib yiqilib tushdi" deb yuqoriga irqitiladi, qo'llar tana bo'ylab erkin tushadi. Musiqa ritmi almashadi.

"Tasavvurdagi koptok bilan sakra" ("Soddadillik" M.Glinka musiqasi)
Kichkina koptokni yuqoriga o'ng qo'l va chap qo'l kaftlari bilan galma-galdan otishga taqlid qilib, bolalar sakrab-sakrab erkin yo'nalishda qarakat qiladilar. qarakatlar musiqa oqanglari dinamikasi mosligida bajariladi.

"Kimning toychoqi tezroqq"
Bolalardan 15-20 qadam oraliqda kichkina qildirakli o'yinchoq toychoqlar arqonga boqlangan, ikkita bola stulda o'tiradi va qo'llarida uzunligi 20 sm bo'lgan tayoqchalarni ushlaydi. Jo'shqin musiqa ostida arqon tayoqchaga o'raladi, toychoqlar bolalarga yaqinlashadilar. Kimning toychoqi birinchi kelsa, o'sha yutadi.

O'tirgan qolatdagi o'yin va mashqlar¬
"quvnoq oyoqchalar" ("Polyanka" rus raqs kuyi. Mashq muallifi S.Rudneva)
Bolalar qo'llari bilan sonlariga tiralib stulchalarda o'tiradilar, tirsaklar yonda. 1-4-taktlar: qar bir taktning "bir" sanoqiga bolalar o'ng oyoqlari tovonini uni kuch bilan bukib baland ko'tarib ilgari surib qo'yadilar, barmoqlarini erkin tutib, tumshuqini tepaga qaratadilar. "Ikki" sanoqida baland ko'targanlarini rostlaydilar va barmoq uchlari bilan polga tegadilar, to'rtinchi taktning "ikki" sanoqida oyoqni oyoqqa tirab qo'yadilar. 1-4-taktlar: shuni chap oyoq bilan (qaytarish). 5-8-taktlar: o'sha qarakatlar oldin o'ng, keyin chap oyoq bilan. Eslatma: pedagog bolalar oyoqlari tumshuqini ilgari surib qo'yganlarida tovonlarini ichkariga qayirmasliklarini (lapanglamasdan) qamda bosh va elkalarini to'qri ushlab stulchalarda xotirjam o'tirishlarini kuzatadi. Mashq raqs va o'yin qarakatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan boldir-tovon bo'qinlari qarakatining aniqligini rivojlantiradi. Agar mashq engil va to'qri bajarilsa, unda 5-8-taktlarda ikkala oyoqlar bilan birdaniga qarakatlar berilishi mumkin. Keyinroq bu mashqni turgan qolatda bajarish mumkin.

"Prujinacha". ("Ax, seni" rus xalq kuyi T.Lomova qayta ishlagan. Mashq muallifi S.Rudneva) qo'llar belda. 1-4-taktlar: qar taktning "bir" va "ikki" sanoqida bolalar yumshoq va prujinali bo'lib yarim cho'kka tushadilar, "i" deyilishi bilan tizzalarini tekislaydilar (qammasi bo'lim

yarim cho'kka tushishlar sakkizta). 5-8-taktlar: bolalar o'sha ritmda sakkiz marta oyoqlari tumshuqida prujinali ko'tariladilar va tovonlarida tushadilar, bunda tizzalari tortilmaydi. Eslatma: Bu mashq tovonlarning kuchi va chaqqonligini rivojlantiradi. Pedagog faqat tizzalaridagina prujinali qarakatlar kamayishini 5-8-taktlarda esa qarakat to'xtamasligini, yuqoriga va pastga qarakatlar orasida to'xtalish bo'lmasligini kuzatadi. Bolalar qomatlarini yaxshi saqlashlari, ularning qarakati esa sho'x, o'yin shaklini va musiqadagi dinamik o'zgarishlarni berishi zarur.
Bu mashqni butun koorektsion kurs davomida qaytarib turish tavsiya etiladi.

Mayda motorikani rivojlantiruvchi o'yinlar
"Barmoq barmoq"
Bolalar pedagog oldida o'tiradilar va qarakatlarni bajaradilar: "Barmoq, barmoq taq, taq (ikki marta qaytariladi), chapak chal, chapak chal, chapak chal (chapak chaladilar). Oyoqlaring bilan tepin, tepin (ikki marta qaytariladi). Bekindilar, bekindilar (yuzni qo'llar bilan bekitiladi), "Barmoq, barmoq taq, taq (ikki marta qaytariladi)".

"Musht – kaft"
Bolalar sho'x musiqa ostida barmoqlarini o'ziga qaratib chap panjani musht qilib qisadilar. Cho'zilgan o'ng qo'lning barmoqlari chap qo'l mushtiga tiraladi. Undan keyin o'ng qo'l panjasi qisiladi, chap qo'l barmoqlari esa cho'ziladi va o'ng qo'l mushtiga tiraladi. qarakatlar tez va aniq bo'lishi kerak.

"qo'llaringizni ko'rsating" (Frantsuz xalq kuyi V.Vitlin qayta ishlagan)
Bolalar aylana bo'lib ketma-ket turadilar. Musiqaning birinchi qismi: bolalar bir yo'nalishda engil sakrash bilan qarakat qiladilar. qarakatni bir oyoqlab sakrashdan ikkitasiga va aylana markaziga burilish bilan tugatadilar. Musiqaning ikkinchi qismi: bolalar kaftlarini ko'rsatib qo'llarini oldinga cho'zadilar (juft taktlarda), va qo'llarini orqasiga bekitadilar (toq taktlarda). qarakatlar musiqa tufayli qazilli va jo'shqin tusda bo'ladi.

"Arqimchoq" (V.Rebikov. Soch. 37. "Arqimchoqda")
Bolalar saf tortib turadilar, oyoqlar birlashgan, qo'llari pastga chap tomonga qaratilgan. 1-8-taktlar: bolalar tizzalarini sekingina prujina qilib, qo'l barmoqlarini keng ochib qar bir taktda elka darajasida qo'llari bilan o'ngga va chapga chayqaladilar. Ikkinchi qismdan boshlab o'ng oyoq bilan yon tomonga qadam tashlaydilar va yirilgan barmoqlari bilan kuchliroq o'ngga va chapga qo'llarini chayqatishni davom etadilar, qamda gavdaning oqirligini bir oyoqdan boshqasiga o'tkazadilar. Ikkinchi qismning oxirida o'ng oyoqni chap oyoqqa tirab qo'yadilar. Musiqaning uchinchi qismidan qo'llarni sekin va oqista pastga tushiradilar va barmoqlarini birlashtiradilar.

Koptok bilan mashq (V.Shubert. «Vals»)
Bolalar aylana bo'ylab ketma-ket turadilar. qar bir bolaning qo'lida katta bo'lmagan koptok bor. qo'llar chapga qaratilgan. Musiqaning birinchi qismi va uni takrorlash: bir paytning o'zida tananing oqirligini o'ng oyoqqa o'tkazib, bolalar toq taktlarda koptok ushagan qo'llarini o'ngga qaratadilar; juft taktlarda koptokni chapga yuqoriga irqitadilar, tana oqirligini chap oyoqqa o'tkazadilar va koptokni ikkala qo'llari bilan ilib oladilar; qarakatlar musiqaning birinchi qismi tugaguniga qadar takrorlanadi. Musiqaning ikkinchi qismi: o'sha qarakatlar, lekin ikkinchi qismda jaranglarning kuchayishini qisobga olib koptokni balandroqqa irqitiladi. Bolalar mashqni takrorlashda buriladilar.

qarsaklar bilan mashq (V.Shubert. «Vals»)
Bolalar saf tortib turadilar, qo'llar orqada. 1-2-taktlar: bolalar oqista qo'llarini oldinga o'tkazadilar, engil va aniq qilib uch marta kaftlarida qarsak chaladilar. 3-4-taktlar: qo'llarini

Bolalar stulchalarga o'tiradilar, ularning qo'llarida turli o'yinchoqlar. Pedagog «Sayr qilamiz» deyishi bilan – qamma «o'yinchoqlar»ni «uy»da qoldiradilar, uning ortidan yuradi, yuguradi, sakraydilar. «Yomqir boshlandi» deyilishi bilan – qamma o'z «uyi»ga qochadilar. Lekin pedagog ularga bildirmasdan o'yinchoqlar joyini almashtirib qo'yadi. Bolalar ularni izlab topishi va «uy»ni to'qri egallashlari kerak.

«O'z rangingni bilib ol»
Bolalar ikki qatorda bir-birlariga yuzma-yuz qarab saflanadilar. Pedagog qo'lida qizil va ko'k rangdagi koptoklar joylashgan savatcha, o'yinchilar qancha bo'lsa, koptoklar qam shuncha. Birinchi qatordagi bolalar qizil koptoklar dumalagan paytda, boshqa qatordagilar ko'k koptok dumalagan paytda yugurishlari kerak. Pedagog bolalar e'tiborini chalqitib, damba-dam savatchalarni birma-bir ko'rsatib turadi. Bexosdan ulardan birini tushirib yuboradi. Bolalar koptoklar orqasidan yugurib borib, ularni terib, pedagog qo'lidagi savatchaga soladilar va o'z joylariga qaytadilar. O'z koptoklarini tez va xatolikka yo'l qo'ymasdan terib olgan qator bolalari yutgan qisoblanadi.
Logoritmik mashqulotlarda bolalarda buyumning xususiyatlari: yumshoq-qattiq; oqirligi: oqir-engil; termik xususiyatlar: sovuq-issiqni taniganlarida taktli-kinestetik sezgi rivojlanadi. Pedagog rasmlarga tayangan qolda qaerda engil shar uchayotganligi, qaerda oqir stol

turganligi; qaerda muzdek qor yoqqanligi, qaerda quyosh isitayotganligini aniqlashga ko'mak beruvchi zarur kuylarni tanlaydi.
Logoped bilan bir vaqtning o'zida musiqiy raqbar o'z mashqulotlarida musiqiy-didaktik materiallar yordamida bolalar «ko'p», «kam», «bir xil», «teng» (shuncha), «qech nima», «bir», «ikki», «uch» va birga oshirish kabi tushunchalarni o'zlashtirishi uchun bir turdagi buyumlardan (pufaklar, tasmalar, bayroqchalar) guruqlarni tuzishga o'rgatadi. Bolalarni qator, safga tizish, qayta qisoblash va shu kabilar, aylana (kichik va katta) bo'ylab tizish, gavdani qarakatlantirish («baland» - oyoq uchlarida ko'tarilish, «past» - cho'kka tushish)dan foydalaniladi. Makonda, vaqtga moslashishga bolalar «oldinga-orqaga», «tepaga-pastga», «kecha», «bugun», «ertaga», «ertalab», «kunduzi», «tunda» tushunchalarni o'zlashtiradigan o'yinlar orqali o'rganadilar. Pedagog bu tushunchalarni musiqiy asarlar va so'z bilan tasvirlab tushuntiradi. Asosiy ranglar (qizil, yashil, qora, ko'k, sariq, oq) qaqidagi tushunchani shakllantirishda qar bir rangni bolalar tasavvurida musiqali siymo orqali yaratish foydalidir, masalan qizil – bayroqcha, yashil – baqor o'tlari, sariq – jo'ja, ko'k – ariqcha, jigarrang – baxmalli ayiqcha, qora – qarqa, oq – moychechak guli.
Atrofdagi dumaloq, sharsimon yoki kvadrat shaklli buyum yoki detallarni ajratib olishni o'rgatish uchun pedagog shunga o'xshash o'yinchoqlarni ko'rsatib mashqulot olib boradi. Buyumlar, shuningdek ularning tuzilishi (dumaloq, kvadrat)ga qarab qarakatli o'yinlar o'tkazadi. Musiqiy-tarbiyaviy o'yinlar olib borishda tabiiy materiallar gullar, barglar, qaraqay bujuridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday o'yinlarda bolalar faqatgina ranglar bilangina emas, balki buyumlarning boshqa xususiyatlari bilan qam tanishadilar.
Raqamli ko'rinishlar ranglar, o'lchovlar, buyumlarning shakli qaqida mashqulotlar olib borish bolalarning fikrlash zeqni-idrokini rivojlantirishga yordam beradi.
Bundan tashqari, davolash-tarbiyaviy ishlariga bayramlar va ko'ngilochar o'yinlarga tayyorgarlik ishlarini kiritishni rejalashtirish lozim. Alaliya bilan oqrigan bolalar bu mashqulotlarda qatnashadilar yoki oddiy tomoshabin kabi o'zlarini passiv tutadilar yoki ommaviy saflanish va xorovodlarda ishtirok etadilar. Bayramona ko'tarinkilik, qayrioddiy va yorqin qodisani xursandchilik bilan kutish bolalarga quvonch baqishlaydi, ularga yaxshi kayfiyat va qayajonli kechinmalar baxsh etadi. Bayramga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish do'stona jipslashgan bolalar jamoasini tarbiyalashga, fe'l-atvorning ijobiy xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari bayram bilishlik jarayoniga ta'sir ko'rsatishi bilan aqamiyatlidir. Chunki bolalarning bayramlarda ko'rganlari uning ongi saviyasini oshiradi va uzoq vaqt xotirasida saqlanib qoladi. Bolalar o'z taassurotlarini do'stlari, ota-onalarga so'zlab beradi, bu qikoyalar uning nutqini rivojlantirishga, o'zining fikrlari va kechinmalarini so'z bilan ifodalashga ko'mak beradi. Alaliya bilan oqrigan bolalar asta–sekin bunday tomoshalarda faol qatnashishiga jalb etiladi.
qish, baqor, yoz, qosil kunlariga baqishlangan dasturiy ertaliklarni tashkil etish, shuningdek qiziqarli savollar va javoblar ertaliklari (nutq bosqichlari yakunini o'tkazish va murakkab sharoitlarda nutq ko'nikmasini mustaqkamlash) va bolalarni nutqiy guruqlar qamda statsionardan chiqishiga baqishlangan bayramlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.
Bitiruv ertaliklari davolash va tuzatish natijalarini ko'rsatish uchun o'tkaziladi. Bunda dastur bolalarga yaxshi tanish bo'lgan materialni o'zgartirilgan yoki yangitdan bezatilgan qolda tuziladi. qo'shiqlar, raqslar, she'rlar, qikoyalarni bolalarga tanish va tushunarli bo'lgan mazmunni qamda ularning nutq imkoniyatlari va ko'nikmalarini qisobga olgan qolda tanlash lozim. Ertaliklar dasturi nutqlar bilan to'ldirilgan bo'lishi kerak, lekin qo'shiq, raqslar, o'yinlar bundan mustasno, degani emas. qar bir ertaliklar saqnalashtirilgan ertak, qikoya va she'rlar bilan tugallanadi. Materialni o'rganishni mashq qilish logopedik, tarbiyaviy, musiqali-ritmli mashqulotlarda o'tkaziladi. Bayramda barcha bolalar ishtirok etishlari lozim. qar bir bola bilan chiqish tayyorlanadi. Nutqiy munosabatda imkoniyati cheklangan bolalar qikoya yoki saqnalashtirilgan asarda qatnasha olmasa, unda unga munosib she'r yoki topishmoq tanlanadi. Agar bolada avtomatlashtirilgan tovush etishmasa, unda u xorli o'qishda, nutqsiz rollarni ijro etib qatnashishi mumkin. Bolalarning bunday chiqishlari asta-sekin: avval guruq

yoki bo'limda, keyin esa ikki guruq uchun o'tkazilgan ertalikda davom ettiriladi. Bunda qar bir bola o'zining qo'rqmas, jur'atli va topqirligini namoyon eta oladi. Bayramlarda faol qatnashmaydigan bolalarga bu chiqishlar ruqiy-terapevtik va dalda beruvchi aqamiyatga ega bo'lib, ularni nutqiy faollikka raqbatlantiradi. Ularda tengdoshlariga tenglashish mayli paydo bo'ladi. Bitiruv ertaliklarida bolalar katta auditoriya: ota-onalar, pedagoglar, o'rtoqlari oldida chiqish qiladilar. Ertalikdan so'ng bolalar o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashadilar, bayramga baqo beradilar.
To'rtinchi bosqichda bolalarning ko'p qirrali nutqiy faoliyatini takomillashtirish ishlari davom etadi. Bunda asosiy diqqat gapdagi so'zlarning taqlili, so'zlar tartibini esda qolishiga qaratiladi. Shu maqsadda logoritmik mashqulotlarda qarakatli syujetli-rolli o'yinlar, saqnalashtirilgan qo'shiq, she'rlar, musiqali va musiqasiz nasr, bayramlar va bitiruv ertaliklari, mashqulotlar va ulardan tashqari bo'lgan tadbirlarda badiiy-nutqiy, musiqali-tasviriy, teatrlashtirilgan o'yinlar, musiqiy turlardagi mustaqil faoliyat raqbatlantirib boriladi. Mashqlar va o'yinlarda musiqa, qarakat qamda so'zlar uyqunligi bilan davom ettiriladi. Mustaqil faoliyat va turli shakldagi munosabatlarga ega bo'lishda musiqa qamda qarakat nutqni yaxshilab boradi. Turli faoliyatlarni takomillashtirishda musiqa, qarakat va nutq bolalar tomonidan erkin boshqarilayotgan turli boqliqliklarni birgalikda keltirib chiqaradi. Agar bosqichning boshlanishida bolalarga nutqli muvofiqlashtiruvchi qarakatlar, jumlalarni yaxlit va ma'noli ifodalashga yordam beruvchi musiqa jo'rligida turli saqna va o'yinlar o'rgatilsa, bolalarning keyingi faoliyatlarida ularning dialoglari, monologlari, murakkab so'zlardan tuzilgan gapirishlari birinchi o'ringa chiqadi.

«Kim tezroq»
Bolalar aylana bo'ylab turadilar. Ulardan biri musiqa sadosi ostida bolalarning ketidan yurib, birorta bola oldiga kelib: «Menga orqa o'girib tur. Ikkalamiz kim tezroq uyga etib borishi uchun birga chopamiz», deydi. Ular bir-birlariga orqa o'girib turishadi va aylana bo'ylab qar tomonga chopib ketishadi. Kim belgilangan joyga oldin etib kelsa, o'sha qolib bo'ladi.
«Svetofor»
Etakchida uchta: yashil, sariq, qizil doirachalar. Bolalar ko'chadan o'tmoqdalar. Agar etakchi qizil doirachani ko'tarsa, bolalar to'xtashadi va xor bilan ikki qator so'z aytishadi. Agar etakchi yashil doirachani ko'rsatsa, bolalar yo'ldan o'tadilar va yana navbatdagi ikki qator so'zni takrorlashadi. Agar bolalardan biri kechiksa, etakchi: «Shu paytgacha qaerda edingq» – deb so'raydi. Kechikkan bola «Svetofor ushlab qoldi. qizil tushunarli, yo'l xatarli. Sariq – yana kutish kerak. Oldinda yashil yonsa – o'ting», - deydi.

To'rtinchi bosqichda badiiy-nutqiy faoliyat takomillashtiriladi. Maqsad – yangi nutqiy (nutqsiz) mashqulotlarga tez moslashishda bolalar qobiliyatini, javobni o'zi mustaqil topishi, bir badiiy-nutqiy faoliyatdan boshqasiga o'ta olishini rivojlantirish. Mashqulotlarda mustaqil faoliyat usullarini bilib olgan bolalar mashqulotlardan tashqaridagi faoliyatga qam ularni qo'llay boshlaydilar. Bir turdagi badiiy-nutqiy faoliyat tarkibi boshqasiga aylanib turganligi sababli logoped, tarbiyachi, musiqa raqbarining o'zaro kelishib ish ko'rishlari lozim bo'ladi. Tarbiyachi mashqulotida eshitilgan qikoya syujeti kunning ikkinchi yarmida logoped mashqulotida rolli o'yinga aylanishi yoki mazkur qikoyaning ayrim personajlari musiqali-ritmli mashqulotlarda musiqa jo'rligida o'ynalishi mumkin; ertak barcha mashqulot turlarida dramalashtiriladi; tarbiyachi mashqulotida ifodali o'qilgan she'r logoritmik mashqulotlarda qarakatli, ovozli ritmik o'yinga aylantiriladi va qokazo.
Bolalarning badiiy-nutqiy faoliyatini ifodalash shakllari turlicha: uyda yoki mashqulotda tarbiyachi yordamida yodga olingan she'rni o'z ixtiyori bilan o'qish, musiqa jo'rligida (melodeklamatsiya), musiqasiz, logoped mashqulotida o'rgangan va esida qolgan ertaklarni bir-biriga aytib berish; mashqulotlarda boshlangan o'zi to'qigan ertak yoki qikoyani mashqulotlardan tashqari (kunning ikkinchi yarmida tarbiyachining aralashuvidan tashqari)da so'zlab berish; to'qigan ertagini musiqali mashqulotlarda o'ynab berish va qokazo.

Mashqulotlar majmuasi bolalar tajribasini badiiy qiyofalar, qayajonli xayrixoqlik, badiiy asar qaqramonlari bilan birgalikda qayqurish, shaxsiy yorqin emotsiya, ona tilining go'zalligini qis etish bilan boyitadi. Bu mashqulotlardan tashqarida qam badiiy-nutqiy faoliyatga qiziqish uyqotadi, bolalar tashabbuskorligini, ularning nutqiy faolligini oshiradi. Musiqiy-ritmik mashqulotlarda bolalar so'zdan, musiqaga mos qarakatdan mustaqil va faol foydalanishlari uchun tarbiyachi o'tkazayotgan va logopedik mashqulotlarda badiiy-nutqiy faoliyatda mustaqil qarakat ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Masalan, bir turdagi nutqiy faoliyatni boshqasi bilan almashtirish: xotirlab qolgani bo'yicha so'zlab berishni - eshitish va suqbat bilan; turli janrlardagi asarlarni (qikoya, yangi engil she'r) eshitishni - eshitgan asar mazmuniga oid suqbat bilan almashtirish.
Keyin bolalarning mustaqil nutqiy faoliyatini murakkablashtirish zarur, masalan, mazmun va janr jiqatidan o'xshash, ammo qarakatning qar xil vazifalariga ega ikki asar bilan tanishtirish: oldin A.Blokning «O'tloqda» she'rini yod olish, keyin esa yangi she'r - E.Losning «Baqor yaqin» she'rini tinglashadi. Bolalar yod olingan she'rni musiqa jo'rligida navbat bilan ifodali o'qishadi, baqor qaqidagi musiqiy asarni tinglashgandan so'ng pedagogning o'zi bolalarga yangi she'rni o'qib beradi.
Bolalarda badiiy materialga qiynalmasdan moslashish qobiliyatini rivojlantirish zarur, bu keyingi maktabdagi ta'lim jarayonida ularga o'zining nutqiy ko'nikmalarini takomillashtirishga; nutqiy tomondan rivojlanishga xalaqit berayotgan nuqsonlarni bartaraf qilishga yordam beradi. Mazkur ishlarga oid materialni folklor asarlar ifodalashi mumkin. Me'yorda rivojlanayotgan bola etti yoshlarga kelib o'ttizdan ortiq rus xalq ertaklari, ko'pgina kichkina shaklli asarlarni bilishi kerak. Alaliya kasaliga chalingan bolalarda badiiy materiallarga moslashish qobiliyati sezilarli darajada pasaygan bo'ladi. Bolalarda bu faoliyat va mustaqil nutqli maqsulotni faollashtirishga davolash ishlari (qarakatlarni tuzatish jarayoni)ning uchinchi bosqichida boshlangan musiqa va rasm chizishni uyqunlashtiruvchi mashqulotlar yordam beradi. Bu yo'nalishni davom ettirib, bolalarga ertakni tanlash va nomlash, keyin uning mazmuniga qarab musiqiy-nutqiy ijro yordamida uning syujetini chizib berishlari taklif etiladi. Pedagog ertakni saqnalarga bo'lib chiqishni taklif etadi – qar bir bola o'zi tanlaganini shunday chizib berishi kerak-ki, ularning qammasini jamlaganda syujetli panno vujudga kelishi, so'ngra «kinotasma» bo'yicha musiqa jo'rligida qarakatli-nutqiy kompozitsiyasini ijro etish mumkin bo'lsin. Bolalar bilan musiqiy mashqulotlarda yod olingan qo'shiqlar mazmuniga qarab flanelegraf uchun shaklchalar yasash mumkin, masalan flanelegraf chizgichlarida notalar – qirqilgan jo'jalarni joylashtirish va «Tovuq» qo'shiqini kuylash yoki musiqiy mashqulotda «Musiqa qutisi» kabi o'yinni tashkil etish va bolalarga boboning savollariga javoblarni chizish berish so'raladi.
Aloqida e'tibor bolalarning mashqulotlardan tashqari bo'lgan mustaqil badiiy-nutqiy faoliyatga berilishi zarur. Bunda u ancha sintetikaviy va yangi davolash-tarbiyalash imkoniyatlarini ochib beradi. U tasviriy, musiqiy faoliyat, teatrlashtirilgan o'yinlar, ijodiy-rolli o'yinlar, loyiqalashtirish bilan tor munosabatda bo'lishdan tashqari badiiy-nutqli faoliyatning qar xil turlari bir-biri bilan o'zaro kirishishi imkoniga ega bo'ladi. Bolalar bilan bayram chiqishlari qaqida, ularning taassurotlari qaqida suqbat qurish, keyin esa musiqali-ritmli mashqulotlarda bayram qismlarini ijro etib ko'rish foydadan qoli emas. Musiqali-ritmli mashqulotlarda bu muddatda yozib olingan musiqalar tinglanadi, diafilmlar keyinchalik ijro etilishi maqsadida namoyish etiladi, kontsertlar uyushtiriladi, viktorinalar o'tkaziladi. Masalan, «Kuldiruvchi buvilar» viktorinasida bolalar buvilarning kulgili uydirmalarini tinglashadi, ulardan so'ng musiqa jo'rligida qar biri kulgili voqea yoki ertaklar mazmunini ifodalaydigan va e'tiborni jalb qiladigan maxsus tanlangan qarakatlar bilan o'zining voqeasini o'qib beradi. Bolalar dramalashgan o'yinlar epizodlarini tayyorlash maqsadida qo'qirchoqlarga namoyish etish uchun rejisser va saqnalashtiruvchilikni o'z zimmasiga olgan faol tengdoshlari boshchiligida kichik kontsert uyushtirishadi. Shunga o'xshash o'yinlar, tomoshaga oid qiziqishlar jamoaviy faoliyatini olib borishda bolalarning mustaqkam guruqlarga birlashuviga, ular uyushishiga imkon yaratadi.

Mustaqil badiiy-so'zlashuv faoliyatini boshqarish usullari quyidagicha:
bolaning mustaqil so'zlashuvi namoyon bo'lishini ta'minlaydigan badiiy so'zlashuv faoliyati ko'nikmasiga o'rgatish;
boshqalar nutqini tinglash, eshitish, diqqat qilish qobiliyatiga o'rgatish;
kattalar nutqining namunasidan keng foydalanish (logoped, tarbiyachining o'qish nutqi, musiqa raqbarining qo'shiq kuylashi, she'rlarni ifodali o'qish, qikoya qilish, suqbatlashish nutqi);
mustaqil so'zlashuv ko'rinishlarida asosiy tayanch sifatida kattalarning savollaridan foydalanish;
ko'rgazmali qurollar va texnika vositalarini qo'llash (magnitofon, gramyozuvlar va shu kabilar);
mashqulotlar davomida nutqni raqbatlantiruvchi muayyan vaziyatlarni yaratish, masalan, musiqiy-didaktik o'yinlardan foydalanish.

Metodli usullarni tanlashda alaliya kasaliga chalingan bolalar nutqiy faoliyati ko'nikmaviy tizimi mavjud emasligi, ularning nutqiy rivojlanishining turli soqalarida qar xil darajada bo'lmasligini qisobga olish kerak. Birlari ko'p qollarda nutqning fonetik tomonlarini bilsa qam, ularning grammatik mutanosibligi shakllanish darajasida bo'ladi (bola qali nutqiy rivojlanish shakllarini bilmaydi, uning nutqiy aktida kattalarning faol yordami muqim o'rin tutadi), boshqalarda nutqning leksik-grammatikaviy tomonlari etarli darajada rivojlangan bo'lsada, fonetik-fonematik jarayonlarda etarlicha qoloqlik kuzatiladi va qokazo. Bu esa nutqni umuman faollashtirish usullari, ularning qar tomonlama uyqunligi (luqat, grammatik qatori, dialog, monolog, nutqning ovoz tomonlarini takomillashtirish) zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mazkur maqsadlarga esa mustaqil teatrlashgan o'yinlar faoliyati xizmat qiladi. Bolalarning teatrlashtirilgan o'yinlari nafaqat qo'qirchoqli personajlar bilan o'ynash yoki rol bo'yicha o'zlari qarakatlanishi, balkim badiiy-nutqiy (mavzuni tanlash, tanish mazmunni, gap tuzish va boshqalar), tasviriy (personaj va qarakatlar), joylarni belgilash, musiqiy (personajlar nomidan qo'shiq kuylash, ularni saqnalashtirish, o'yinga tushish, qo'shiqni xirgoyi qilish va qokazo) kabi faoliyatlarni o'z ichiga kamrab oladi. Ularning xususiyati shundan iboratki, ular saqna echimi bilan birlashgan bo'ladi. Bolalarning teatrlashgan o'yinlardagi badiiy-nutqiy faoliyati drama qonuniyatlariga bo'ysunadi – u personajlar nomidan dialoglar, monolog shaklida, ba'zan esa muallif nomidan so'zli tushuntirishlar orqali ijro etiladi. Tasviriy faoliyat makoniy-bezakli xususiyatga ega: bolalar uycha, daraxtlar, novdalar chizilgan qamda applikatsiya qilingan shakllari va qokazolarni yaratadi; musiqiy faoliyat saqna qarakatlarining ritmli tomonini tashkil etishga ko'mak beradi.

Teatrlashgan o'yinlar faoliyati tuzilmasining murakkabligi bolaning logoped, tarbiyachi. musiqiy raqbar bilan o'zaro munosabatlariga boqliq bo'ladi, chunki teatrlashgan o'yinlar kompozitsiyasi elementlariga turli mashqulotlarda ishlov beriladi. Teatrlashgan o'yinlar faoliyati musiqiy-ritmli mashqulotlarda va mashqulotlardan tashqari, bolalarning mustaqil faoliyatida qam amalga oshiriladi. Tayyorlov bosqichida ularga kattalarning yordami va boshqaruvi zarur. Pedagog turli yoshdagi bolalar guruqlarining mustaqil teatrlashgan faoliyatiga javob beruvchi ma'lum mezonlarga amal qiladi. U uch darajaga bo'linadi: o'rta guruqga muvofiq keladigan birinchi daraja, ikkinchisi – katta guruq, uchinchisi – tayyorlov guruqi.

Bola quyidagilarni bilishi lozim:
birinchi darajada – biror-bir personaj nomidan katta bo'lmagan gaplar va jumlalarni gapirish, uning qarakatlarini so'ngra makonda yuzalik ustida tashkil etish, xotirjam qadam tashlash (siljish), tezlashgan sur'atda yurish (yugurish, sakrash, burilish); o'zining qarakatlarini sherigi qarakatlariga moslashtirishni bilish (gapni bo'lmasdan tinglash, sherigiga murojaat qilib, gapirish); qarakatlar joyini qisobga olib, personajlar qarakatlari mantiqiga muvofiq qarakatlar va amallarni bajarish;

ikkinchi darajada – uncha katta bo'lmagan monologlar va personajlar o'rtasidagi ochiq dialoglar olib borish, personajlar bilan turli xil qarakatlarni (gavda, boshni egiltirish, qo'llar qarakati) qo'llagan qolda saqnalashtirish; o'z qarakatlarini sheriklari qarakatlari bilan moslashtirishni bilish, ularni to'sib qo'ymaslik, maqsadga yo'naltirilgan qarakat va amallarni tanlash, qar doim sheriklardan biri ekanligini qis etish, o'zining personaji rolini ijro etish uchun ifodali vositalarni topish; bir qancha dekoratsiya elementlari bilan personajlar qarakatlanadigan joyni bezatishga intilish;

uchinchi darajada – rollar bo'yicha tugallangan saqnachalar va katta bo'lmagan pesalarni ijro etish, personajlarning oqang ifodaliligidan foydalanib, rolga muvofiq ovozni o'zgartirish, uning qarakatlari va amallarini maromiga etkazish; o'yin makonida personajning maqsadga yo'naltirilgan qarakatlarini topish; sherikni ko'rish va eshitish, pardani cho'zib yubormaslik va qovliqmasdan o'ynash, qarakatning umumiy jarayoniga qo'shilish; pardani joyini bezatishni tashkillashtirish va uni bezatish uchun zarur bo'lgan narsalarni tayyorlab qo'yish; guruqga birlashish. Bundan tashqari, bolalar bir-birlari bilan rollarni va teatrlashgan tomoshalar (spektakl) tayyorgarligi va namoyishi bilan boqliq boshqa majburiyatlarni o'zaro taqsimlashni bilishlari lozim.

Tabiiyki, mustaqil teatrlashgan o'yinlar faoliyati rivojlanishining ko'rsatilgan darajasiga alaliya bilan oqrigan bolalar asta-sekin, uzoq davr mobaynida va doimo qam muvaffaqiyatga erishmasdan etishishadi. Barcha davolash-tarbiyalash jarayoni davomida mazkur faoliyatda kattalar ishtirok etishining darajasi ancha yuqori, u faqat ishning to'rtinchi bosqichiga kelgandagina bir oz pasayadi;

shaxsni davolovchi-logopedik qayta tarbiyalash va bolada nutq rivojlanishining to'rtinchi bosqichida musiqiy faoliyat yoki musiqa chalish faol raqbatlantiriladi. Taniqli nemis bastakori va musiqiy ma'rifat arbobi K.Orf ta'kidlaydiki, bolalarning musiqa chalishi qo'shiq, ritmli qarakat, deklamatsiya bilan sintezlashganda ro'y beradi. Bolalarning ular uchun mo'ljallangan musiqiy asboblarini chalishi musiqalashtirilishda muqim o'rin tutadi. Odatda bolalar oilada yoki bolalar boqchasida o'yin jarayonini musiqalashtirishadi. Musiqa chalish tarbiyalash-davolash maqsadlarida qam foydalaniladi. Mustaqil musiqa faoliyatini olib borish sababi, ayniqsa, bolalar nutq vositalarini ifodalashi qiyinchilik bilan kechishida, bolalar uchun musiqa orqali o'zini namoyon etish qisoblanadi. Musiqani tayyorgarliksiz ijro etib, yoqib qolgan oqanglarni qaytarib, bola o'zining takomillashmagan bo'lsa-da, qo'shiqi orqali quvonchni ifodalaydi, bu bilan nimanidir isbotlashga qarakat qiladi. U katta tayyorgarlik bilan o'zining tajribasini o'rtoqlari bilan bo'lishadi, o'zi qo'shiq kuylashni takomillashtirish uchun qar xil asboblarda, musiqiy o'yinchoqlarni chalishni mashq qiladi.

Musiqani chalish bolalarni ko'rish va eshitish tushunchalarini boyitadi, ularning xotirasini takomillashtiradi. Bolalar rasmlarni ko'rib chiqishlari va rasmlarni ifodalaydigan so'zlarga musiqa yaratishlari mumkin yoki kichkina akkordeonlarni olish va ovoz bo'yicha kuy tanlab akkordeon sozlarini qarakatga keltirishlari mumkin. Shunga o'xshash musiqa chalishda etakchi o'rinda uyda asbob chalishni o'rganayotgan bola turadi. Unga odatda bolalar taqlid qilishadi: uning qarakatlarini qaytarishadi, musiqani so'zlarsiz xirgoyi qilishadi va uning chalayotgan kuyiga qo'shiq aytib jo'r bo'lishadi. Bolaga «pianino» maketini chalib ko'rishni taklif etish mumkin, bu qolda bola chalish texnikasiga taqlid qiladi, bir paytda musiqa xirgoyi qiladi va dramalashtiradi, o'yinchi rolini yoki jamoaviy qo'shiq kuylashda bosh rolni o'ynaydi. Musiqa chalish davrida bolalarni o'zlarini tutishlari turlicha bo'ladi: ular yo asbobda biror-bir narsani chalish bilan mashqul bo'ladi, yo ijrochi sifatida ifodali qo'shiq kuylash, raqsga tushish va qatnashuvchilarga xursandchilik ulashishga qarakat qiladilar; yo biror-bir bola chalayotgan kuyni zo'r ishtiyoq bilan eshitib o'tirishadi yoki tomoshabinga aylanishadi; yo qo'qirchoqlarini tizzasiga olib o'zlarini bolalarini kontsertga olib kelgan ota-onalar sifatida faraz qilib o'tirishadi.

Bolalar mustaqil musiqiy faoliyatini tashkillashtirishning ikki shaklini taklif etish mumkin. Ulardan biri – musiqiy syujetli-rolli o'yin. Bolalar turli musiqiy taassurotlar ta'sirida yoki kattalar maslaqatiga bo'yicha («Talantlilarni qidiramiz», «Kontsert», «Orkestr o'yini»,

«Musiqiy mashqulot» va qokazo) mavzuni tanlab oladilar, rollarni taqsimlab. syujetni ochib beradilar. Boshqa shakl – avtodidaktik xususiyatli mashqlar: bolalar musiqiy asboblarni chalib, biror-bir raqs qarakatini o'rganib, mashq qiladilar.

Musiqani chalish mashqulotlarda katta qajmli, syujetli-rolli o'yin sifatida foydalanilib, tarbiyachi tomonidan tashkil etiladi, musiqiy burchak yoki guruqda o'tkaziladi. Boshqaruv usullarini rejalashtirgan tarbiyachi jiqozlarga qanday yangilik kiritish, qaysi tartibda, qanday qajmdagi asboblar va qo'llanmalarni berish: bolaning qiziqishlarini bilish uchun ularning qaysi birini kuzatib yurish, qaysi usul bilan kam faollilarni jalb qilishni: mashqulotlar, bayramlar, tomoshalardan mustaqil faoliyatga bolalar nimani va qanday olib o'tishadi, ular teledasturlar, kinofilmlar, teatrli spektallar va oilaviy an'analar ta'sirida o'zining musiqa chalishi uchun nimalarni olishini aniqlab boradi. Shuning uchun tarbiyachi musiqiy raqbar, logoped, ota-onalar bilan doimiy aloqada bo'lib turadi.

Musiqiy raqbar alaliya kasaliga chalingan bolalarning barcha turdagi faoliyatida mustaqilligini rviojlantirishga aloqida aqamiyat berishlari kerak. Mashqulotlarda musiqiy faoliyat turlari tarkibini turlamoq zarur; namoyishga oid va mustaqil qarakatlarni ijodiy birlashtirish; bolalarning mustaqil musiqiy-bilish faoliyatini faollashtirish: savollarni turlamoq, faoliyatga undamoq; qo'shiq aytish, xorovod, musiqa jo'rligisiz raqsga tushishni ko'proq mashq qildirish, bolalarni nimalarnidir o'ylab topishiga choralash, ijro usulini topishni taklif qilish va qokazolar; umumiy mashqulotlar vaqtida ko'proq individual yondashuvdan foydalanish, chunki baravariga qo'shiq aytish, umumiy raqsga tushishga mukka tushish kerak emas – bu ba'zida bolalarning kamchiliklari, musiqiy faoliyatning ayrim soqasidagi qobiliyatlari namoyon bo'lishiga imkon bermaydi.

Shunday qilib, mazmuni, musiqiy faoliyati turlari, ularning boshqa faoliyat va boshqa mashqulotlar bilan uyqunligi bo'yicha turlicha bo'lgan logoritmik mashqulotlar asosiy vazifalar: nutq faoliyatining qar tomonlama rivojlanishi, nutqning barcha funktsiyalari, xotira, e'tibor, tafakkur va bolalar ruqiy faoliyatining boshqa tomonlari takomillashtirilishini ro'yobga chiqarishga imkon beradi.

Savollar va topshiriqlar.

Alaliyaning turli shakllari mavjud bolalarda qarakat, sensomotor va emotsional iroda soqasining buzilishini tavsiflab bering.

Alaliya kasaliga chalingan bolalarda nutqni rivojlantirishga oid davolash ishlarining turli bosqichlarida musiqa raqbari va logopedning qamkorlikdagi ishlari nimadan iboratq

Logoritmik mashqulotlarda alaliya kasaliga chalingan bolalarning motorli va sensomotorli funktsiyasi buzilishlari qanday bartaraf qilinadiq

Logopediya ritmikasi mashqulotlarida alaliya kasaliga chalingan bolalar nutqi rivojlanishining izchilligini ko'rsating.

Tasviriy faoliyat elementlari ishtirok etgan musiqiy-ritmli mashqulotni taqlil qilib, alaliya bilan oqrigan bolalar bilan shunga o'xshash mashqulotlarni o'tkazish zarurligini isbotlang.

Alaliya kasaliga chalingan bolalar bilan bayram ertaliklarini tayyorlash va o'tkazishning xususiyatlari nimadaq

Alaliya bilan oqrigan bolalarning mustaqil badiiy nutq faoliyatini qanday rivojlantirish mumkinq

Alaliya bilan oqrigan bolalar musiqiy faoliyatini taqlil qilib, uning fazilatlarini ko'rsating.

NUTqIY TAShKILOTLARDA LOGORITMIK TARBIYa BO'YIChA TAShKILIY-USLUBIY KO'RSATMALAR

MUSIqIY RAqBAR IShIDAGI VAZIFA VA MAZMUN

qozirgi kunda O'zbekistonda nutqida buzilishi bo'lgan turli yoshdagilar yordam oladigan nutqiy tashkiltlarning keng tarmoqi mavjud. Shtatida musiqiy raqbari bo'lgan bu tashkilotlarda logopedik ritmika bo'yicha mashqulotlar olib boriladi (korrektsion kurs davomida maygacha qaftasiga bir marta, may-iyun oyida esa logopedik ritmika bo'yicha bitta, musiqiy-ritmika bo'yicha bitta mashqulot o'tkaziladi).

Boshqa tashkilotlarda logopedik mashqulotlar logopedik ritmikaning vositalariga qo'shiladi yoki agar logopedda musiqiy bilim bo'lsa, uning o'zi mashqulotlarni olib boradi.

Logo- va musiqiy-ritmik mashqulotlarda musiqiy raqbar logoped va tarbiyachi bilan qamkorlikda ta'lim va tarbiyaning butun kursi jarayonida va navbatdagi mashqulotlar davomida qator masalalarni echadi. Ularning echimi uchun musiqiy raqbar nutqiy buzilishi bo'lgan shaxslarning yoshi va psixik rivojlanishiga muvofiq material tanlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida materialni tanlash bolalar tarbiyasi dasturining talablariga, maktabda – o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha dasturlarga, kattalar bilan ishlashda – ularning bilim va aqliy saloqiyatiga mos keladi. Musiqiy-ritmik mashqulotlarda estetik masalalar, ayniqsa, mustaqil musiqiy, tasviriy, badiiy-nutqiy faoliyat, teatrlashtirilgan o'yinlar va saqnalar jarayonida echiladi. Musiqiy-ritmik mashqulotlarning tarbiyaviy vazifasi ushbu tashkilotning, ya'ni bolalar boqchasi, bolalar uyining nutqiy guruqlari, logopedik punktlar, statsionarlar, sanatoriya, kasalxonalarning umumiy tarbiya vazifalariga bo'ysunadi.

Korrektsiya vazifalari temp, nutqiy rim va qarakatlanish faoliyatining buzilishi, psixik funktsiyalar (diqqat, xotira, tafakkur)ning kasalligi bilan birga boruvchi etakchi nutqiy va nutqiy bo'lmagan buzilishlarga boqliq.

Ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirib musiqiy raqbar va tarbiyachi bolalarni yugurish, sakrash, tirmashib chiqish va q.k. vaqtida nazorat ostiga oladi. Chunki nutqiy buzilishi bo'lgan bolalarda muskullarning paretichnost, qomat va qarakatlar uyqunligining buzilishi uchrashi mumkin.

Musiqiy raqbar tashkilotda musiqiy-ritmik tarbiyani umumiy saqnalashtirishga javob beradi: mashqulotlarni turli-tuman shakllardan foydalangan qolda sistematik tarzda olib boradi; tarbiyachilar bilan ularning musiqiy darajasini ko'targan qolda shuqullanadi; logoped, davolovchi shifokor, javolash badantarbiyasi bo'yicha metodist, massaj qiluvchi bilan mashqulotning korrektsion yo'nalishini muqoqama qilib maslaqatlashadi, nutqiy buzilishi bo'lgan shaxslarning ota-onalari va qarindoshlari o'rtasida logoritmik qamda musiqiy-estetik tarbiya va ta'lim masalalarini tarqib qiladi. "Ota-onalar burchagi"da logopedik ma'lumotlar bilan bir qatorda musiqiy-ritmik tarbiya bo'yicha materiallar, tavsiya qilinayotgan instrumental asarlar ro'yxati, bolalarni bolalar musiqiy asboblarida o'yinlarga o'rgatish, ovozni, kuylash malakalarini mustaqkamlash ustida uyda qanday ishlash masalalari bo'yicha uslubiy maqolalar qam joylashtiriladi. Stendning mazmuni taxminan 1,5 oyda almashtiriladi.

Bolalar nutqiy muassasalarida bolalarning logo-musiqiy-ritmik va estetik rivojlanishi masalalarini qamrab oluvchi umumiy va guruqli ota-onalar yiqilishlari katta aqamiyat kasb etadi. Statsionarlarda, yarimstatsionar kasalxonalar va dispanserlarda estetik tarbiyada tematik va yakuniy kontsertlarga tayyorgarlik qilish va o'tkazish muqim rol o'ynaydi.

Musiqiy-ritmik mashqulotlar tuzilmasi musiqiy, qarakatlanish va nutqiy material, dasturiy malaka, ko'nikmalarning zaruriy vorisligini ta'minlashi lozim. U shuqullanuvchilarning yoshi, nutqiy patologiya ko'rinishi, logopedik ish bosqichini shartlab qo'yadi, ko'rsatilganlarga boqliq ravishda o'zgartiriladi. Mashqulotlarni kirish mashqlari bilan, kuylash yoki musiqa tinglash yoki yangi qo'shiqni kuylash, yoki qarakat uchun pes qo'yish va q.k. lar bilan boshlash mumkin. Bolalar bilan mashqulotlar ancha erkin, majburlanmaydigan xarakterda bo'lishi lozim, chunki ular musiqiy-o'yinli, tasviriy va badiiy-nutqiy faoliyat asosiga quriladi.

Logoritmik va musiqiy-ritmik mashqulotlar albatta istiqbolli va kalendar rejalashtirishni talab qiladi.

Istiqbolli rejalashtirish pedagogga mashqulotlarda korrektsion ta'sir vositalarini kiritish ketma-ketligini taqdim etadi. Musiqiy raqbar bir vaqtning o'zida turli nutqiy buzilishlari bo'lgan guruqlarda ish olib boradi va istiqbolli rejalashtirish unga dislaliya, dizartriya,

duduqlanish, alaliya va q.k. lari bo'lgan shaxslarni musiqiy-ritmiy tarbiyaga differentsiyalangan yondoshuvni amalga oshirishga yordamlashadi. Istiqbolli reja 3 oyga tuziladi, unda musiqiy va sensor-qarakatli faoliyatning qamma turlari; malaka va ko'nikmalar qajmi; logoritmik ta'sirning barcha turlari bo'yicha dasturiy mazmun; bilimlarni tekshirish, bajaruvchanlik sifati; shuqullanuvchilarda musiqiy va kuylash rivojlanishining darajasi rejalashtiriladi.
Istiqbolli rejalashtirishda logopedik korrektsiya bosqichlari bilan muvofiqlik masalalri aniqlanadi.
Birinchi bosqich (sentyabr, oktyabr, noyabr) korrektsion kursni boshlaydi (o'quv yili davom etadigan mussasalarda), bu paytda esa guruqlar jamlanadi. Logopedik mashqulotlarga yana qo'shilgan jamoani tashkil etish vazifasi logoped bilan birga parallel qo'yiladi. Musiqali raqbar qar birining musiqali, sensor, va psixomotor rivojlanish darajasini tekshiradi, uning kelgusidagi rivojlanish va korrektsiyasi yo'lini belgilaydi. Bolaning nutqiy imkoniyatlari, korrektsion ishning bosqichi repertuarni tanlashda qisobga olinadi.
Ikkinchi bosqich (dekabr, yanvar, fevral) shular bilan xarakterlanadi, endi guruqda ish yo'lga qo'yilgan, pedagog jamoani, qar birining imkoniyatlarini biladi. Mashqulotlar jarayonida ritmikani uddalash takomillashtiriladi, musiqiy qobiliyat rivojlantiriladi. qo'shiqli, musiqali-qarakatlantiruvchi repertuar qishki tomosha, o'yin-kulgi, quvnoq archa saqnalari mavzulari bilan boyitiladi. Pedagog yakka mashqulotlar paytida ashulada, qarakatda qiynalayotganlarga yordam beradi, bayram ertaliklarida aloqida chiqishlar tayyorlaydi.
Uchinchi bosqich (mart, aprel, may, iyun) yillik korrektsiya kursini tugatadi. Mashqulotlar jarayonida muqim voqealar nishonlanadi: qishni o'tkazish, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Baqor va meqnat kuni, qalaba bayrami va boshqalar. Mashqulotlarda butun guruq va aloqida qar birining egallagan musiqali-qarakatlantiruvchi va nutqni uddalash darajasi tekshiriladi. Bosqichning oxirida o'rganilgan materialni mustaqkamlaydigan qo'shiqlar, o'yinlar, raqslar, xorovodlar teatrlashgan tomoshalar kabi mashqulotlarni rejalashtirish mumkin.
Kalendar rejani musiqali raqbar va tarbiyachi tuzadi va o'zlari uni olib boradilar. Rejaga shu kundagi mashqulotlarning dasturiy va korrektsion talablari, repetuar va ba'zi ancha kerakli metodik usullar kiritiladi. Reja 1–2 qaftaga tuziladi, ya'ni 2 ta yoki 4 ta mashqulotni kiritadi. Kalendar rejada qar bir mushqulotning natijalari qisobi olib boriladi. Shuqullanuvchilar nimani yaxshi egallaganini, nimada qiynalayotganini, qanday qo'shimcha mashqlar kerakligini belgilash muqim. qisobotda ularning oldinga siljishini kuzatish uchun shuqullanuvchilarning ismi, familiyasi qayd qilinishi kerak.
Musiqali raqbar o'zi ochiq darslar tayyorlaydi va ularda ishtirok etadi. Ularning maqsadi tajriba almashish, logoritmika ustaliklari namunasini ko'rsatish imkoniyati, turli shakldagi nutq patologiyasi bilan kasallangan odamlar bilan ishlash metodikasi, vazifalari va mazmuni qaqidagi tasavvurlarni aniqlash qisoblanadi. Ochiq darslar nutq patologiyasining qamma ko'rinishlarida o'tkaziladi va albatta logoped bilan kelishiladi. Ishtirokchilarga mashqulotlar mavzusi qamda kuzatish va taqlil uchun savollar oldindan xabar qilinadi.
O'tkazilgan mashqulot muqokama qilinganida quyidagilarga e'tibor berish kerak: qarakatlanishga va nutqqa o'rgatish, ko'nikma va uddalashni mustaqkamlash vazifalari qay darajada qal qilinadi; o'qitish tamoyillari qanday amalga oshiriladi; o'qitish usuli shuqullanuvchilarning yoshiga, nutq buzilishiga, korrektsion ish bosqichiga, mashqlar xarakteriga, musiqa jo'rligiga qay darajada mos keladi; nutq xatoliklari to'qrilanadimi va ogoqlantiriladimi; tarbiyaviy, ta'lim, soqlomlashtirish va koorektsion vazifalar qanday qal qilinadi; qar bir mashqning dozirovkasi va bajarilish tempi aniq maqkam turadimi va to'qri o'rnatilganmi; qarakat tarangligi qanday tartibga solinadi; butun mashqulot va qar bir qismining davomiyligi qanday; mashqulotlar zichligi qanday.
Shuqullanuvchilarning mashqlarni bajarish sifatini sinchiklab ko'rib chiqib, tashkillashish o'lchovini, tengdoshlari bilan o'zaro munosabati sifatini; ijodiylik belgilari darajsini ko'rinishini, diqqat erkinligini, faollikni, tashabbuskorlikni, o'z-o'zining psixik faoliyatini tartibga solishni; aqvoli va kayfiyatini o'zgarishi alomatlarini belgilash kerak.

Musiqiy raqbarga bo'lgan talablarni ko'rib chiqib mashqlarni tushuntirish va ko'rsatish sifatiga; butun guruqni (kichik guruqni) ko'ra olishni uddalashga; nutq maqsulotining sifatiga; shuqullanuvchilar xulqiga; nutq madaniyati, ovozni egallashni uddalashga; pedagogik odobga rioya qilishni uddalashga; shuqullanuvchilar bilan to'qri muloqot oqangiga; mashqulotlarni o'tkazish xarakteriga (ishonch bilan, ishonchsizlik bilan) e'tiborni qaratish zarur.
Ko'zdan kechirilgan mashqulotning muqokamasi logoped, musiqali raqbarning nazariy asoslangan xulosasi va mashqulotni umumiy baqolash bilan tugaydi.

2. Kadrlarni tayyorlash. Mashqulotlar uchun xonani bezash

qozirgi paytda logoritmika bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash uchun maxsus o'quv yurti yo'q.
Maktabgacha ta'lim muassasalarida va nutqi buzilgan bolalar uchun guruqlarda musiqali raqbar qilib musiqali ma'lumoti bo'lgan va turli nutq buzilishlari bilan kasallangan bolalarni o'qitish kurslarida tayyorgarlik ko'rgan kishilar tayinlanadi.
Nuqi buzilgan bolalar uchun muassasalarda ishlaydigan musiqali raqbarlar o'z malakasini qar 5 yilda oshirishga majburlar. Ommaviy bolalar boqchasidagi ishdan farqi ancha katta. Masalan, ommaviy bolalar boqchasida birinchi chorakda bayramlarga tayyorlanish faollik bilan boshlanadi. Nutq muassasalarida bunday ish olib borilmaydi, negaki oktyabr oyida duduqlanadiganlar guruqlarida nutqda va qarakatda cheklanishlar kuzatiladi (indamaslik tartibi, pichirlash nutqi); dislaliyali guruqlarda nutq motorikasini me'yorlashtirish bo'yicha ish endi boshlanadi; dizartriyali va alaliyali guruqlarda nutq buzilishlari buzilishi shu qadar ko'pki, bolalar ommaviy boqcha dasturi talablarini uddalay olmaydilar (qali majbur emaslar). Shuning uchun musiqali raqbarlar malakasini oshirish kurslari rejalarida bolalar nutq muassasalarida musiqali-ritmik tarbiyaning korrekitson yo'nalganligini ochish, albatta, oldindan ko'zda tutilishi kerak.
Korrektsion pedagogika fakultetlari talabalari logoritmika tayyorgarligini oladilar. «Logopedik ritmika» kursini o'qitish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tasdiqlagan dastur bo'yicha amalga oshiriladi.
Talabalar logopedik ritmika bo'yicha bilimlarini maktabgacha va maktab nutq muassasalarida logopedik amaliyot jarayonida mustaqkamlaydilar. Ular logo- va musiqali-ritmik mashqulotlar o'tkazadilar, ularni taqlil qiladilar, amaliyotning oxirida mashqulotlar konspektlarini rasmiylashtiradilar, korrektsion-pedagogik ish tizimida logoritmik ta'sirning zarurligi (foydasi, kamchiliklari) to'qrisida konferentsiyalarda chiqadilar.
Logopedik ritmik bo'yicha tayyorlangan logopedlar musiqali raqbar faoliyatiga, uning korrektsion jarayonda ishtirok etishiga ancha maqsadli raqbarlik qiladilar. Korrektsion pedagogika fakultetlari talabalari o'zlarining musiqali va ritmik qobiliyatlarini mustaqil rivojlantirishlari maqsadga muvofiq.

*   *   *

O'zining mazmuniga ko'ra, ayniqsa badiiy, musiqali qar qanday faoliyat predmetli makonga oid muqitga tegishli, estetik jiqatdan asosli uyushishni talab qiladi, negaki, estetik munosabat moddiylik doirasida go'zallikni qis qilish borliq bilan uzviy aloqada ko'rinadi.
Badiiy-nutqli, musiqali-ritmik, teatrli-o'yinli, tasviriy faoliyat majmuini amalga oshirish uchun quyidagi narsalar bilan jiqozlash zarur: kitoblar, albomlar, texnik vositalar, o'zi yasaladigan kitobchalar, adabiyot bo'yicha bosma didaktik o'yinlar; asboblar, musiqali-didaktik o'yinlar va qo'llanmalar, o'zi yasaladigan o'yinlar, koptoklar, sharlar, chambarakalar, lentalar, bayroqchalar, niqob-qalpoqlar, raqs, xorovod uchun kostyumlar va boshqalar; obrazli va teatrlashgan o'yinchoqlar (yumshoq va qattiqlari), personajlar va dekoratsiyalar chizilgan tekis figurachalar, barmoqli va qo'lqopli bi-ba-bo qo'qirchoqlari, shirmalar, saqna-planshetlar, maxsus qurilmalar, qo'qirchoqlar uchun materiallar, bolalar kostyumlari va dekoratsiya elementlari, teatrlashgan o'zi yaasaladigan o'yinchoqlar; badiiy-

konstruktorlik materiallari (bo'yoqlar, mo'yqalam, qalamlar), stol ustidagi bosma va didaktik o'yinlar, o'zi yasaladigan o'yinchoqlar pedagogik va estetik talablarga javob beradigan xonani bezaydigan elementlar. Xonani musiqali-ritmik mashqulotlar uchun jiqozlashda texnik vositalar kiritiladi: magnitofon, radio va televizor, diapozitiv va diafilmlar.

Maktabgacha nutq muassasalarida, bolalar statsionarlarida bolalarning rasm chizishga, yasashga, ashula aytishga, musiqaga yakka layoqatlilari raqbatlantiriladi. Bu faoliyat muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun kerakli sharoitni yaratish zarur: mashqulotlar uchun joy ajratish, musiqa burchagi yasash, uni qo'llanma va asboblar bilan ta'minlash. Engil baland bo'lmgan dekorativ shirma bilan to'silgan musiqa burchagida bolalar asboblari, o'zi yasaladigan o'yinchoqlar, didaktik qo'llanmalar, musiqali o'yinlar, raqslar uchun atributlar, musiqa uchun 1–2 ta kichkina stolcha joylashtiriladi. Shuqullanuvchilarning qarakatga, muskullar faolligiga intilishini qoniqtirish uchun musiqa va raqs bilan shuqullanishga, rasm chizish va yasash, o'qish va kitoblarni ko'zdan kechirish, saqna va etyudlar o'ynashga imkon beruvchi qurilmalar va reja turi maqsadga muvofiq bo'ladi. Nutqi buzilgan odamlarga yolqiz o'tirishi va qiziqishiga qarab kichik guruqlar bilan ishlashi uchun qam sharoit yaratish ko'zda tutilishi zarur.

Shunday qilib, nutqida patologiyasi bor kishilarni ijtimoiy readaptatsiya qilish bo'yicha davolovchi-tiklantiruvchi, logopedik, logo- va musiqali-ritmik tadbirlar predmetli makonga oid muqitni tashkil etish uchun aqamiyatli rol o'ynaydi.

Savollar va vazifalar

Nutqida patologiyasi bor odamlar bilan logoritmik tarbiyani tashkil qilishda musiqa raqbari, logoped va tarbiyachining vazifalarini xarakterlab bering.

Bolalar boqchasining nutq guruqi pedagogik jamoasi otaqonalar bilan bolalarni logoritmik tarbiyalash masalalari bo'yicha ishni qanday tashkil qiladiq

Zalni jiqozlashga logoritmik mashqulotlarni bezashga qanday talablar qo'yiladiq

Istiqbolli va kalendar reja o'rtasidagi aloqa nimada ko'rinadiq

Logoritmik tarbiya bo'yicha ota-onalar majlisida qo'yilishi mumkin bo'lgan savollarni belgilang.

Tarbiyasi musiqali raqbarsiz o'tkazishi mumkin bo'lgan logoritmik mashqulotning konspektini tuzing (gramyozuvdagi musiqadan foydalanib).